

# “ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika  
ko'p tarmoqli, ilmiy  
**KONFERENSIYA**

## #25

2026



## TAHRIRIYAT A'ZOLARI

*Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Madumarov T.T. yur.f.d., prof.*  
*Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*

*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*  
*Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent,*  
*TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH  
ISSN: 2181-3558**

**ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA  
AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI  
№ 25-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA  
2026-YIL**

**RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION,  
THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES  
25<sup>th</sup> REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE  
2026**



**OLTIN O‘RDA DAVLATIDA BOSHQARUV TIZIMINING  
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI***Kamilova Shaxnoza G‘ulomjon qizi**Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti**II kurs magistranti. 33-631-21-28*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Oltin O‘rda davlatida boshqaruv tizimining shakllanish jarayoni va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mo‘g‘ul-turk davlat an‘analari hamda islomiy boshqaruv institutlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida vujudga kelgan siyosiy-ma‘muriy apparatning tuzilishi yoritiladi. Xon hokimiyatining markaziy o‘rni, beklarbek, amirlar, vazirlik va devon tizimining faoliyati hamda mahalliy boshqaruv shakllari manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshqaruv tizimidagi evolyutsion o‘zgarishlar va uning Oltin O‘rda davlatining siyosiy barqarorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘siri ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Oltin O‘rda, davlat boshqaruvi, xon hokimiyati, beklarbek, devon, vazir, ma‘muriy apparat, mo‘g‘ul-turk an‘analari, islomiy institutlar.

Oltin O‘rda davlati XIII asrning o‘rtalarida Chingizxon imperiyasining uluslarga bo‘linishi natijasida vujudga kelgan yirik siyosiy tuzilmalardan biri hisoblanadi. U nafaqat Sharqiy Yevropa va Dashti Qipchoq hududida, balki butun Yevroosiyo makonida muhim geosiyosiy va iqtisodiy o‘rin egallagan. Mazkur davlat boshqaruv tizimi mo‘g‘ul-turk davlat an‘analari hamda islomiy boshqaruv institutlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllandi. Xon hokimiyati markaziy o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, davlatni boshqarishda beklarbek, amirlar, vazir va devon kabi mansabdor shaxslar ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, XIV asrga kelib Oltin O‘rda siyosiy tuzilmasida boshqaruv institutlari takomillashib, markaziy va mahalliy boshqaruv shakllari ancha murakkablashgan.

Oltin O‘rda murakkab va tarmoqlangan boshqaruv tizimiga ega edi. U davlat mavjud bo‘lgan deyarli uch asr davomida shakllanib va o‘zgarib bordi. Bosib olingan Dashti Qipchoqda butun Mo‘g‘ullar imperiyasi uchun an‘anaviy bo‘lgan institutlarni joriy etishdan boshlab, Jo‘jiylar keyinchalik bo‘ysundirilgan xalqlar va qo‘shni mamlakatlarning ma‘muriy an‘alaridan ham oqilona foydalanishga muvaffaq bo‘ldilar. Natijada markaziy va mahalliy idoralar organlari hamda lavozimlarining majmuasi, poytaxt va viloyat hokimiyatlarining ierarxik tarzda tashkil etilgan tizimi vujudga keldi.

Jo‘ji ulusi tarixida uning ma‘muriy tuzilmasi transformatsiyasida hal qiluvchi bosqichlar sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan bir qancha voqealar bo‘lgan. Davlatning 1260-yillarning ikkinchi yarmida imperiya hukumatidan amalda

mustaqillikka erishishi Saroy xonlarini davlatni yangi, mustaqil maqomga muvofiq tarzda qayta qurishga undadi.

Oltin O‘rdaning davlat tuzumiga xos xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: a) xonning monarxik hokimiyati; b) boshqaruvda bir necha (odatda to‘rt) aristokratik tatar urug‘lari vakillari bo‘lgan karachi-beklarning ishtiroki; v) ko‘chmanchi aholi va hududning o‘ng va chap qanotlarga bo‘linishi; g) ulus tizimi – xon tomonidan harbiy boshliqlar va “fuqaroviy” amaldorlarga boshqaruv uchun berilgan bo‘ysunuvchi kontingentlar va hududiy mulklar majmuasi; d) noiblar instituti (mo‘g‘ulcha: darugachi, daruga; turkiycha: baskak) shahar va qishloqdagi o‘troq aholini boshqarishda; e) yasoq solig‘i tizimi; j) davlat ma‘muriyati bilan mahalliy aholining an‘anaviy boshqaruv organlarining uyg‘unlashuvi.[1]

Jo‘ji ulusi davlatining va butun boshqaruv tizimining boshida xon turgan. Ko‘chmanchi qadimiy an‘analardan davlat boshlig‘ining umumxalq tomonidan saylanishi (aslida esa saylovni ma‘qullash) odati davom etgan. Oltin O‘rda xonlari islomga o‘tgach, ularning hokimiyatini endi bu din qonun-qoidalariga muvofiq ravishda legitimlashtirish masalasi paydo bo‘ldi [1].

Chingiziylar oilasining podshohona martabasi ularning ajdodlaridan biri Bodoncharning osmoniy kelib chiqishi haqidagi afsona bilan mustahkamlangan. Ushbu afsonaga ko‘ra, ularning buvisi Alan-Goa Bodoncharni va uning ikki ukasini o‘tovning tutun chiqadigan yuqori teshigidan (dumnikdan) uning qorniga kirgan yorug‘lik nuri orqali dunyoga keltirgan [2].

Bundan tashqari, urug‘ning boshlanishida totem ajdod – Borte Chino (Bo‘z bo‘ri) turgan bo‘lib, u ham “Oliy Osmon irodasi bilan” tug‘ilgan deb hisoblangan [3]. Shunday qilib, Chingiziylar, jumladan Jo‘ji avlodlari hukmronligining legitimligi butparast tasavvurlar majmuasiga, ya‘ni ushbu urug‘ni boshqalardan ajratib ko‘rsatishda g‘ayritabiiy kuchlarning ishtiroki haqidagi qarashlarga asoslangan edi.

“Davlat tayanchi bo‘lganimdan so‘ng, xalqni himoya qilishdek og‘ir ishni o‘z zimnamga oldim”. Uning o‘g‘illariga qilgan nasihatlar ham aynan shu fikrlarga borib taqaladi [4]. Umuman olganda, imperiya va uning uluslarida hukmron urug‘ hokimiyati birinchidan, Chingizxonning xarizmasiga; ikkinchidan esa Chingiziylar urug‘ining o‘ziga xos xarizmasiga asoslangan edi. Keyinchalik, g‘arbiy uluslarda mo‘g‘ul va turkiy ko‘chmanchilarning islomlashuvi jarayonida, Chingiziylar hukmronligini islom nuqtayi nazaridan legitimlashtirish muammosi paydo bo‘ldi.

Oltin O‘rda boshqaruv tuzilmasida turklar va mo‘g‘ullar uchun an‘anaviy bo‘lgan muassasa – qurultoy, ya‘ni zodagonlar qurultoyi qayd etilmaydi. Ehtimol, u nomigagina mavjud bo‘lgan, biroq faqat favqulodda holatlarda yoki tantanali sabablar bilan (yangi hukmdorni e‘lon qilish) chaqirilgan [3]. Vaqt o‘tishi bilan,

islom qabul qilinishi va XIV asrning birinchi yarmida shaharlarning ravnaq topishi natijasida, bu toifadagi fuqarolarning iqtisodiyotdagi roli va, demakki, ularning ijtimoiy ahamiyati tubdan oshgan.

Oltin Oʻrdaning koʻchmanchi aholisi asosan beklarbegi nazorati ostida boʻlgan, oʻtroq aholisi esa vazir nazoratida boʻlgan. Bunday vakolatlar taqsimoti sharoitida xonning roli oʻz amaldorlari ustidan oliy nazorat, ular oʻrtasidagi kelishmovchiliklarda hakamlilik qilish, prinsipial masalalarda yakuniy qaror qabul qilish bilan cheklangan. Oʻrta asr kuzatuvchilari Joʻjiylar monarxi “faqat ishlarning mohiyatiga eʼtibor beradi, tafsilotlarga kirmaydi va unga yetkazilgan xabar bilan qanoatlanadi, biroq soliq yigʻish va sarflashning mayda-chuydasini tekshirib oʻtirmaydi” deb taʼkidlaganlar [5]

Beklarbegi beklar (noʻyonlar, amirlar) tabaqasining nominal rahbari boʻlgan va shu sifatda oliy harbiy qoʻmondon sifatida namoyon boʻlgan. Oʻrda islomni qabul qilganidan soʻng, aynan u bilan oʻrta asr musulmon davlatlariga xos boʻlgan tashqi siyosatning mafkuraviy asosi – yaʼni din uchun kurash (urush) bogʻlangan. Shu sababli uni “islom va musulmonlarning yordami”, “mujohidlar va din uchun kurashuvchilarning himoyachisi” deb unvon bilan ataganlar.

Beklarbegi lavozimining paydo boʻlishi Oltin Oʻrdaning rivojlanish koʻrsatkichlaridan biri boʻlgan. Birinchidan, maʼmuriy-siyosiy rivojlanish: asosiy bek va uning saroyi timsolida davlatning ixtisoslashgan harbiy idorasi shakllangan.

Biroq arxaik anʼanalar bosimi va Ulus inqirozi bu jarayonning toʻliq yakunlanishiga imkon bermagan.

Xullas, Oltin Oʻrda davlatida boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi XIII–XV asrlarda moʻgʻul-turk davlat anʼanalari hamda islomiy boshqaruv institutlarining sintezi asosida amalga oshdi. Xon hokimiyati davlatning siyosiy markazi boʻlib qolgan boʻlsa-da, amaliy boshqaruv jarayonida beklarbek, amirlar, vazirlik va devon tizimi muhim funksiyalarni bajargan.

Boshqaruv tizimining evolyutsion rivojlanishi Oltin Oʻrda davlatining siyosiy barqarorligi va iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qilgan boʻlsa-da, XV asrga kelib ichki siyosiy kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va uluslarning mustaqillikka intilishi natijasida boshqaruv tizimida inqiroz holatlari yuzaga keldi. Natijada Oltin Oʻrda davlatining parchalanishi va uning oʻrnida yangi siyosiy tuzilmalar paydo boʻlishi kuzatildi.

Umuman olganda, Oltin Oʻrda boshqaruv tizimi oʻrta asrlar Yevroosiyo davlat boshqaruvi tarixida muhim oʻrin tutib, keyingi davrlardagi turkiy va musulmon davlatlarining maʼmuriy institutlariga sezilarli taʼsir koʻrsatgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Егоров В.Л. Историческая география Золотой Орды в XIII–XIV вв. М.: Наука, 1985. 246 с.
2. Книга путешествия. Турецкий автор Эвлия Челеби о Крыме (1666–1667 гг.). Пер. икомм. Е.В.Бахревского. Симферополь: ДАР, 1999. 144 с.
3. Козин С.А. Сокровенное сказание. Монгольская хроника 1240 г. Т. I. Пер., тексты, глоссарии. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1941. 620 с.
4. Котвич В.Л. Из поучений Чингиз-хана // Восток. 1923. № 3. с. 94–96.
5. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды / Пер. В.Г.Тизенгаузена. Т. I. Извлечения из сочинений арабских. СПб.: Тип. имп. Академии наук, 1884. 579 с.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHNING DAVLAT SIYOSATI VA IJTIMOY MEXANIZMLARI

*Sayfutdinov Dostonbek Rustamjon o‘g‘li*  
*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*  
*Tarix yo‘nalishi 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati hamda uning ijtimoiy mexanizmlari tahlil etilgan. Xususan, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalarni, shuningdek bolali onalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va tashabbuslar yoritilgan. Mahalla institutining oilalarni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni, ijtimoiy yordam tizimi va uning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida aholining ijtimoiy himoyasi kuchaygani hamda oila institutining jamiyatdagi roli mustahkamlangani asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila instituti, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, mahalla instituti, kam ta‘minlangan oilalar, yosh oilalar, ijtimoiy yordam, nafaqa tizimi, davlat dasturlari, sog‘lom avlod, xotin-qizlar, ijtimoiy barqarorlik,

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalar, shuningdek bolasi kichik bo‘lgan onalarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mahalla institutining faol ishtiroki orqali aholining ehtiyojmand qatlamlariga aniq yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu jarayonda nafaqalar tayinlash, moddiy yordam

ajratish hamda oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning mustahkamligi jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida oila institutini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonini sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq deb hisoblagan. Shu maqsadda "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'asis etilishi, shu nomdagi jamg'armaning tashkil qilinishi, shuningdek "Kamolot", "Mahalla" jamg'armalari hamda "Oila" ilmiy-amaliy markazining faoliyat boshlashi muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, "Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" [1] (1994) va "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida" (1997) kabi hujjatlar ham mamlakatimizda oilani mustahkamlashga qaratilgan muhim davlat siyosati choralardan biri bo'ldi.

1999-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilishdagi nutqida Birinchi Prezident I.A.Karimov avvalgi yillarda belgilangan ustuvor yo'nalishlar – inson manfaatlari, oila va ayollar masalalariga qaratilgan siyosat izchil davom ettirilishini ta'kidlab, 2000-yilni mamlakatimizda "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilish tashabbusini ilgari surdi [2]. Bu tashabbus jamiyatda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatining muhim bosqichlaridan biri bo'ldi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-fevraldagi qarori bilan "Sog'lom avlod" Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur dastur sog'lom oilani shakllantirish, yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat va intellektual rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutdi [3]. Bu jarayonda davlat bilan bir qatorda jamoat tashkilotlari va xayriya jamg'armalari ham muhim rol o'ynadi. Jumladan, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Navro'z" jamg'armalari hamda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyati orqali yosh avlodning ma'naviy kamoloti, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ijtimoiy faolligini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Ushbu tashkilotlar tomonidan nogironlar, kam ta'minlangan oilalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi.

Shuningdek, mustahkam oilani shakllantirish va oilaviy muammolarni hal etishda mahalla instituti alohida o'rin tutib keldi. Shu bois mahalla fuqarolar yig'inlari oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, nizolarni bartaraf etish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2002-yil 25-yanvardagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi PF-3017-sonli Farmonga[4] muvofiq, bolasi ikki yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish bilan band bo‘lib ishlamaydigan onalarga mahalla orqali beriladigan oylik nafaqa miqdori 2002-yil 1-fevraldan eng kam ish haqining 170 foizi, 2003-yil 1-yanvardan esa 200 foizi etib belgilandi.

Shuningdek, 2006-yil 23-martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qaror ijrosi doirasida “Mahalla” xayriya jamg‘armasi va mahalla fuqarolar yig‘inlari tashabbusi bilan kam ta‘minlangan hamda ko‘p bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlash ishlari kuchaytirildi. Jumladan, 2006-yilda 569,6 mln so‘m mablag‘ evaziga 1424 bosh qoramol ushbu oilalarga yetkazib berildi, shuningdek homiylik tomonidan “Mahalla” jamg‘armasi va mahallalarga 5 mlrd 388 mln so‘m miqdorida ijtimoiy yordam ko‘rsatildi. Mazkur chora-tadbirlar mustaqillik yillarida davlat va mahalla institutlari hamkorligida oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa yosh bolali va ko‘p farzandli oilalar farovonligini mustahkamlashga xizmat qilgan [5].

Mamlakatimizda oilalarni mustahkamlash va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati izchil davom ettirib borildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni [6] bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2007-yil 1-sentabrdan boshlab davlat byudjetidan kam ta‘minlangan oilalarga ajratiladigan moddiy yordam miqdori sezilarli darajada oshirildi.

Shuningdek, 2007-yilda amalga oshirilgan “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ayniqsa ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oldi. Bu dastur nafaqat bir yil doirasidagi vazifalarni, balki mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishni ham nazarda tutdi [7]. Mazkur farmonga ko‘ra, ko‘p bolali ehtiyojmand oilalar, ikki yoshgacha farzandi bor ishlamaydigan onalar hamda kam ta‘minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan oilaning daromadi va mol-mulki hisobga olingan holda, ijtimoiy adolat tamoyili asosida tayinlanishi belgilandi. Shuningdek, 1-sentabrdan boshlab kam ta‘minlangan oilalarga ajratiladigan budjet mablag‘lari 1,5 baravarga oshirilib, to‘lov muddati 6 oygacha uzaytirildi. 2007-yil “Ijtimoiy himoya yili” doirasida esa tadbirkorlik subyektlarining mahallalarga ajratgan mablag‘lari daromad solig‘idan ozod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007-yil 18-maydagi “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra, har ikki tomoni 30 yoshdan oshmagan va ilk bor nikohdan o‘tgan oilalar yosh oilalar toifasiga kiritilib, ularga uy-joy qurish yoki sotib olish hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Shuningdek, ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdorining oshirilishi oilalarning moddiy farovonligini yaxshilashga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari faoliyati ham oilalarni mustahkamlash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2012-yilning O‘zbekistonda “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilinishi oila siyosatini rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. Shu munosabat bilan qabul qilingan “Mustahkam oila yili” Davlat dasturida jamiyatning asosi bo‘lgan oila institutini yanada mustahkamlash, ayniqsa yosh oilalarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi [8].

Dastur doirasida oila institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish, yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, mahalla institutining rolini kuchaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda “Sog‘lom ona – sog‘lom farzand” tamoyilini rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar ilgari surildi. Ushbu chora-tadbirlar jamiyatda sog‘lom va mustahkam oilalarni shakllantirish hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qildi.

Birinchi prezident tashabbusi bilan 2013-yilning “Obod turmush yili” deb e‘lon qilinishi oilaga bo‘lgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. Davlat dasturi doirasida yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, uy-joy va infratuzilmani rivojlantirish, mahalla institutining rolini kuchaytirish, oilalarni mustahkamlash hamda ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutildi.

2016-yilning esa “Sog‘lom ona va bola yili” deb e‘lon qilinishi mahalla faoliyatining yanada mazmunli bo‘lishiga turtki berdi. Bu davrda mahallalarda xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash komissiyalari ishtirokida oilaga oid qonunlarning ahamiyati, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, oiladagi totuvlik hamda xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi o‘rniga bag‘ishlangan tadbirlar keng tashkil etildi. Jumladan, “Mahalla oiladan boshlanadi”, “Oila va nikoh”, “Yoshlarni oila qurishga tayyorlash”, “Qaynona ham ona”, “Ayol, oila va jamiyat”, “Ibratli kelinchak”, “Oilada bola tarbiyasi”,

“Sog‘lom ona – sog‘lom farzand” kabi mavzularda seminarlar, ko‘rik-tanlovlar va davra suhbatlari o‘tkazildi [9].

Yuqoridagi hujjatlar va amalga oshirilgan ijtimoiy dasturlar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kam ta‘minlangan oilalarning turmush darajasini yaxshilash hamda mahalla institutining jamiyatdagi rolini mustahkamlashga xizmat qildi. Xususan, nafaqa va moddiy yordam tizimining kengaytirilishi, tadbirkorlik subyektlari va homiylarning ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki aholining ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘ldi. Natijada mamlakatda ijtimoiy himoya tizimi yanada takomillashib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari shakllandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-196343>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog‘lom avlod davlat dasturi to‘g‘risida»gi qarori // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2000 yil, 16 fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog‘lom avlod davlat dasturi to‘g‘risida»gi qarori // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2000 yil, 16 fevral.
4. <https://lex.uz/docs/-149685>
5. Республика “Маҳалла” хайрия жамғармасининг жорий архиви, 2008 йил 10 сентябрь. // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 23 мартдаги “Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорини амалга оширишда республика “Маҳалла” хайрия жамғармасининг иштироки ҳақида маълумотнома. – Б. 3–4.
6. <https://lex.uz/docs/-1145040>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 19 мартдаги ПФ-3864-сонли “Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ва мустаҳкамлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007, 12-сон, 105-модда; 2012, 52-сон, 586-модда.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mustahkam oila yili davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarori // “Ma‘rifat” gazetasi 2012 yil 29 fevral.
9. Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish “Ijtimoiy fikr” markazining joriy arxivi. “Ijtimoiy fikr” markazining 2003-yil yanvar oyida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma materiallari. – B. 10.

**QORAXONIYLAR DAVLATIDAGI SIYOSIY TUZUM VA BOSHQARUV  
TIZIMI**

*Boqiyeva Umida Xabibullayevna*  
*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*  
*Tarix yoʻnalishi 2 kurs magistranti.*  
*umidab@gmail.com Tel: 90-934-58-59*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatining siyosiy tuzumi va boshqaruv tizimi tarixiy-ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Unda davlatning shakllanish jarayoni, turkiy qabilaviy anʼanalar bilan islomiy boshqaruv tajribasining uygʻunlashuvi, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi hamda harbiy-maʼmuriy tuzilmaning asosiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, xoqonlikning iyerarxik boshqaruv modeli, viloyat elokxonlik tizimi, saroy amaldorlari faoliyati va harbiy kuchlarning tashkil etilishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada Qoraxoniylar davlatining Markaziy Osiyo siyosiy tarixidagi oʻrni hamda keyingi turkiy-islamiy davlatlar rivojiga koʻrsatgan taʼsiri ochib beriladi. Tadqiqot tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirilib, Qoraxoniylar davlatchiligining oʻziga xos modeli sifatida baholanadi.

**Kalit soʻzlar:** Qoraxoniylar davlati, siyosiy tuzum, boshqaruv tizimi, xoqonlik, elokxon, turkiy davlatchilik, Markaziy Osiyo, harbiy tizim, islom mafkurasi, maʼmuriy iyerarxiya, Movarounnahr, Yettisuv, turkiy qabilalar, davlat boshqaruvi, harbiy-maʼmuriy tuzilma.

Movarounnahr va Yettisuvning IX–XII asrlar siyosiy tarixida Qoraxoniylar davlati muhim oʻrin tutadi. Somoniylar inqirozga yuz tutgan, ammo Saljuqiylar va Xorazmshohlar hali toʻliq shakllanmagan davrda Qoraxoniylar mintaqada turkiy siyosiy elitaning yetakchi kuchiga aylandi. Ular turkiy xoqonlik anʼanalari bilan Eron-soʻgʻd boshqaruv tajribasini uygʻunlashtirib, davlatchilikni yangi bosqichga olib chiqdi hamda islom mafkurasini siyosiy boshqaruv bilan bogʻlab, uning legitimatsiyasini mustahkamladi.

Qoraxoniylar boshqaruv tizimi ikki boshli xoqonlik, viloyat-elokxonlik iyerarxiyasi va kengash-maslahat anʼanalari bilan ajralib turdi. Davlat qabila ittifoqi asosidagi boshqaruvdan markazlashgan tizimga oʻtib, tangazorlik, noiblik va vaqf yerlari tizimini rivojlantirdi. Shu bilan birga, saroy amaldorlari, harbiylar va ulamolar oʻrtasida muvozanat saqlanishiga alohida eʼtibor qaratildi.

Dastlab IX asr oʻrtalarida shakllangan bu davlatda boshqaruv qabilaviy-harbiy asosga ega boʻlib, hukmdor “yabgʻu” unvoni bilan atalgan, keyinchalik esa tizim yanada takomillashib, markazlashgan boshqaruvga oʻtdi [1]. Hududdagi barcha qabilalar yabgʻuga boʻysungan va u ularning xavfsizligini taʼminlagan. Har bir

qabila o'z sardori tomonidan boshqarilib, ular bir vaqtning o'zida harbiy sarkarda va xoqon noibi sifatida yabg'u buyrug'i bilan yurishlarda ishtirok etgan.

Vaqt o'tishi bilan boshqaruv tizimi takomillashdi. X asr o'rtalariga kelib, davlat hududi kengayishi natijasida islohotlar o'tkazilib, boshqaruv markazlashdi. Davlat boshida "qoraxon" unvonli buyuk xoqon turib, taxt aka-uka tartibida sulolaning eng yoshi ulug' vakiliga o'tgan. Shu bilan birga tavg'achxon, arslonxon, bug'roxon kabi faxriy unvonlar ham qo'llanilgan.

Davlat aniq iyerarxiyaga ega bo'lib, viloyatlarga bo'lingan holda boshqarildi. Viloyat hukmdorlari "elokxon" deb atalib, ular xoqon noiblari sifatida faoliyat yuritgan, ayrim hollarda o'z nomidan tanga zarb etib, nisbiy mustaqillikka intilgan. Movarounnahr elokxoni odatda Samarqandda istiqomat qilgan. Viloyatlar "taqin" unvonli shaxslar tomonidan boshqarilgan bo'lib, ular ham ma'muriy, ham harbiy vazifalarni bajargan. Shahar boshqaruvi esa hokim, rais va muhtasiblar zimmasiga yuklatilgan.

Islom dini davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilib, siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Ruhoniylar – imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarning mavqei oshib, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ta'siri kuchaydi, natijada vaqf yerlarining kengayishi kuzatildi [1].

Qoraxoniylar xoqonligi Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan turkiy davlatlardan biri bo'lib, turkiy davlatchilik an'analari asosida shakllangan. U X asrning 990-yillarida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Janubiy Tyan-Shan hududlarida vujudga kelgan. Davlatning tashkil topishida qarluqlar, chigillar va yag'mo kabi yirik turkiy qabilalar hal qiluvchi rol o'ynagan [2].

Qoraxoniylar hukmdorlari Arslonxon va Bug'roxon unvonlari bilan mashhur bo'lib, taxtga chiqqan hukmdor "ulug'xon" yoki "qoraxon" deb atalgan, ba'zan "xonlar xoni" va "tamg'achxon" titullari bilan ham sharaflangan. X asr oxirida Abdulkarim Sotug' Bug'roxon va uning nabirasi Horun ibn Muso boshchiligidagi yurishlar natijasida 992-yilda Buxoro egallanib, Shosh va Farg'ona hududlari ham qo'lga kiritildi. 996–999-yillardagi keyingi yurishlarda Somoniylar davlati to'liq mag'lub etilib, Nasr I Qoraxoniylar Movarounnahrni egalladi va bu yerda yangi turkiy sulola hukmronligiga asos soldi. Qoraxoniylar Movarounnahrni 1212-yilgacha boshqarib, o'sha yili Xorazmshoh Muhammad tomonidan tugatildi [3].

Qoraxoniylar qurolli kuchlari haqida uyg'ur olimi Xoji Nurhaji ma'lumotlariga ko'ra, sulola armiyani mustahkamlash va harbiy boshqaruvni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Harbiy qo'mondonlardan qat'iy intizom, jasorat va qurolni mukammal bilish bilan birga, keng siyosiy tafakkur, dushman holatini chuqur tahlil qilish, qo'shinlarni oqilona boshqarish hamda qulay joylashuvni tanlash talab etilgan. Shuningdek, ular askarlarga mehribon bo'lishi va

davlat hamda xalq manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishi zarur deb hisoblangan [4].

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida ta'kidlaganidek, qo'mondon molidunyoga hirs qo'ymasligi va haddan tashqari boy bo'lmasligi lozim, shunda u atrofida mard jangchilarni to'play oladi va ular sadoqat bilan xizmat qiladi. Qo'mondonning mag'rurligi esa dushman ustidan g'alaba qozonishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Qoraxoniylar an'anasiga ko'ra, ko'pincha xoqonning o'zi yoki uning o'g'li bosh qo'mondon ("suv boshi") vazifasini bajargan. Armiya "suv" deb atalib, 4 ming askar "bir doshin", 12 ming askar esa "chung qishin" (katta doshin) sifatida tashkil etilgan [4]. Bosh qo'mondon "urdagoh" deb ataluvchi qarorgohni to'g'ri tanlash, doshinlarni joylashtirish uchun qulay hududni belgilash kabi muhim vazifalarni bajargan.

Umuman olganda, Qoraxoniylar xoqonligi Markaziy Osiyoda turkiy harbiy-ma'muriy an'analarni yanada rivojlantirib, markazlashgan boshqaruv, intizomli armiya va kuchli harbiy rahbarlar tizimini shakllantirdi. Sulola qo'shinlarida tartib-intizomga alohida e'tibor berilib, qo'mondonlarni tayinlashda qat'iy mezonlarga amal qilingan. Tinchlik davrida muntazam armiya son jihatdan uncha katta bo'lmagan, ammo uning jangovar tayyorgarligi yuqori darajada saqlangan. Urush paytida esa qo'shinlar safi kengaytirilib, jang tugagach safarbar etilgan kuchlar o'z joylariga qaytarilgan. Armiyada qal'alarni himoya qiluvchi, xoqonni qo'riqlovchi, tungi hujum qiluvchi, razvedka va kuzatuv vazifalarini bajaruvchi maxsus bo'linmalar mavjud bo'lgan.

Qurolli kuchlar uch toifaga bo'lingan: markaziy hokimiyatga bo'ysunuvchi muntazam armiya, sulola a'zolari va yuqori amaldorlarning shaxsiy qo'shinlari hamda qabila boshliqlariga tegishli harbiy kuchlar. Harbiy tuzilmaning eng kichik bo'g'ini "o'toq" bo'lib, 10 askardan iborat bo'lgan va o'toqbosh tomonidan boshqarilgan. Bir necha o'toq "xayil"ni, o'nta o'toq esa "kiyam"ni tashkil etgan. Bu tizimni "kun o'toqbosh" boshqarib, uning tasarrufida yuzboshi va boshqa zobitlar faoliyat yuritgan.

Urush davrida qo'shinlar "o'ng qo'l qo'shini", "so'l qo'l qo'shini", "o'rta saf" va "orqa saf"ga bo'linib, aniq tartib asosida jangovar harakat qilgan. Qo'shinning oziq-ovqat ta'minoti bilan maxsus bo'linmalar shug'ullangan bo'lib, bu g'alabani ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblangan.

Urushlarda alohida jasorat ko'rsatgan hukmdor va sarkardalarga "Bug'roxon", "Bug'ro-qoraxon", "Tungaxon", tashqi siyosat va davlat ishlaridagi xizmatlari uchun esa "Qodirxon" unvonlari berilgan. Jangovar qahramonlik ko'rsatganlar "Kilichxon", "Sukman", "Tunga-tekin", "Alp-tekin", "Yorgan-tekin" kabi faxriy unvonlar bilan taqdirlangan. Davlat xizmatida fidokorona faoliyat

yuritganlar “Kul-bilgaxon”, saroydagi eng yuqori mansabdorlar esa “Bosh hojib” unvoniga ega bo‘lgan.

Har bir amaldor o‘z mansabiga mos kiyim kiygan va rasmiy hujjatlarga shaxsiy tamg‘a bosgan; bu tamg‘a xoqon tomonidan berilgan. Maoshlar esa aniq tartib-qoidalar asosida belgilanib, xizmat darajasiga qarab o‘zgarib borgan. Qoraxoniylar davrida “Harbiy devon” tashkil etilib, u qo‘shinlarni ro‘yxatga olish, maosh tayinlash, lavozim o‘zgarishlarini rasmiylashtirish hamda halok bo‘lgan askarlarni hisobdan chiqarish kabi vazifalarni bajargan. Askarlar oyma-oy maosh olgan bo‘lib, bu ularning jangovar ruhini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Qo‘shinlarda to‘qqiz xil tug‘ ishlatilgan bo‘lib, ular davlat ramzi hisoblangan. Tug‘lar odatda sarg‘ish-qizil rangda, ipak yoki paxta matodan tayyorlangan. Harbiy tuzilma va unvonlar ko‘p jihatdan qadimgi turkiy an‘analarni davom ettirgan bo‘lsa-da, Islom davrida ayrim yangi lavozim va tizimlar ham shakllangan. Qoraxoniylar qo‘shinlari o‘rtasida aloqa tezkor choparlar va signal minoralari (“kurguy”, “kargu”) orqali ta‘minlangan. Harbiy taktika sifatida pushtirma, chalg‘itish usullari va mustahkam lagerlar qurish keng qo‘llanilgan.

Qurol-yarog‘lar o‘q-yoy, qilich, nayza, bolta, temir to‘qmoq va xanjarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, himoya vositalari sifatida sovut, dubulga va qalqon ishlatilgan. Dubulga ostiga kiyiladigan jun qalpoq – “kaduk” – jangchilarning boshini himoya qilgan.

Xoqon bosh qo‘mondon hisoblangan bo‘lib, undan tashqari xoqon avlodlari, viloyat hokimlari va yirik amaldorlar tasarrufida ham qo‘riqchi qo‘shinlar mavjud edi. Qoraxoniylar qo‘shin tizimi ko‘p jihatdan yollanma kuchlarga tayangan, tinchlik davrida kichik, urush paytida esa kengaytirilgan armiyadan iborat bo‘lgan. Shu bilan birga, qo‘shin tarkibida vatanparvarlik, intizom va jangovar ruhni shakllantirishga alohida e‘tibor berilgan. Qoraxoniylar harbiy tizimi Markaziy Osiyoda turkiy-islomiy davlatchilikning ilk mukammal modelini yaratib, keyingi Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davlatchilik an‘analariga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Хасанов. Қорахонийлар давлатининг ташкил топиши ва ўзбек давлатчилиги тарихида тутган ўрни. Монография. -Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2024. 192 бет.
2. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — Москва-Ленинград: Академия наук СССР, 1950. — С. 57, 184—188.

3. Бартольд В. В. Богда-хан // Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии / Ю. Э. Брегель, Б. Г. Гафуров. — Москва: Наука, 1964. — Т. II (2). — С. 506. — 658 с
4. Хожи Нурхажи Қадимги уйғурлар ва қорахонийлар. Урумчи 2001. 327-бет

## 2000-YILLAR BOSHLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR VA ULARNING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA'SIRI

*Raximov Farxod Rasulovich*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*

*Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti*

[farxod86@gmail.com](mailto:farxod86@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 2000-yillar boshlarida Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda ularning aholi turmush darajasiga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqotda agrar sohani isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, Shahrisabz tumani misolida aholi daromadlari va xarajatlari tarkibi, demografik omillar hamda mehnat bozori ko'rsatkichlari o'rganilgan. Tahlillar asosida islohotlarning ijobiy natijalari bilan bir qatorda mavjud muammolar ham aniqlanib, hududiy rivojlanishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo viloyati, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholi turmush darajasi, bandlik, daromadlar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, agrar islohotlar, Shahrisabz tumani, mehnat bozori, ijtimoiy himoya, infratuzilma.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, 2000-yillar boshlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda hududlar kesimida, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi faoliyati yaxshilanib, ish haqlari, stipendiyalar, pensiyalar miqdori uzluksiz oshirib borildi. 1992 yil 8 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pensiyalar, stipendiyalar va noishlab chiqarish soha xodimlarining lavozim maoshlari miqdorini oshirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy ta'minot, fan, davlat muassasalari va uy-joy kommunal xo'jaligi tarmoqlari xodimlarining ish haqi 2 barobar oshirildi [1]. Jumladan, qarilik,

nogironlik va boquvchisini yo'qotganlarga to'lanadigan nafaqalar ham ko'paytirildi. Birgina, Qarshi tumanida 1992 yili 16385 kishi nafaqa oldi. Shulardan 9621 tasi yoshi bo'yicha, 240 nafari ikkinchi jahon urushi nogironligi uchun, 315 nafari nogironligi uchun nafaqa oldi. Shuningdek, mazkur tumanda qishloq xo'jaligi kasaba uyushmasi yo'li bilan va mehnat birjasi tomonidan nafaqa pullari to'landi [2]. Demak, O'zbekiston qishloq aholisiga moddiy yordamni tashkil etish ishi eng dolzarb masalalar qatoridan joy oldi va muammolarni hal etish uchun qator tashkilotlar jalb etildi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston oldida turgan ustuvor vazifalardan biri iqtisodiyotni bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tkazish, hududlar barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda aholi turmush darajasini oshirishdan iborat edi. 2000-yillar boshlarida amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar hududiy rivojlanish strategiyasida muhim bosqich bo'lib, viloyatlar iqtisodiyotining agrar ixtisoslashuvi, demografik omillar va mehnat resurslari salohiyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi. 2004 yilning 1-choragi yakunlariga ko'ra, iqtisodiy o'sish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hamda islohotlarning chuqurlashuvi natijasida aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ijobiy shart-sharoitlar yuzaga keldi. Jumladan, real daromadlar 14,1 foizga, o'rtacha oylik ish haqi 24,5 foizga oshdi. Uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibida oziq-ovqat ulushi 4,4 foizga kamayib, nooziq-ovqat mahsulotlari ulushi 2,7 foizga oshgani iqtisodiy holatning yaxshilanganini ko'rsatadi [3].

Mazkur davrda respublikaning janubida joylashgan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumani aholisining turmush darajasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 2000-yillar boshlarida tuman aholisi 272 ming nafarni tashkil etib, uning tarkibida 0–15 yoshdagilar 40 foiz, nafaqaxo'rlar 10 foiz va iqtisodiy faol bo'lmaganlar 11 foizni tashkil etdi. Mazkur demografik holat iqtisodiyotda band aholiga tushadigan boqimandalik yukining yuqori ekanligini ko'rsatadi [4].

Shahrisabz tumanida ushbu davrda mehnat bozori ko'rsatkichlari ham o'ziga xos xususiyat kasb etdi. Jumladan, tuman mehnat bo'limida ish izlovchi sifatida rasman ro'yxatda turganlar 1 foizni, rasmiy sektorda band bo'lganlar 28 foizni, norasmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar esa 10 foizni tashkil etdi [4]. Aholi tarkibidagi bunday o'ziga xoslik uy xo'jaligi daromadlari va xarajatlariga albatta o'z ta'sirini o'tkazadi.

2003 yil yanvar–iyun oylarida Shahrisabz tumanida aholi jon boshiga daromad 70 539,6 so'mni tashkil etdi. Daromad tarkibida ish haqi (31,3 foiz), mahsulot sotish va xizmat ko'rsatish (29,1 foiz), transport xizmatlari (23,2 foiz) hamda tadbirkorlik faoliyati (11,7 foiz) asosiy ulushni egalladi. 1999 yil ma'lumotlari bilan taqqoslaganda, ayniqsa tadbirkorlik va xizmat ko'rsatishdan

olinadigan daromadlar sezilarli darajada oshgani kuzatilib, bu ijobiy iqtisodiy siljish sifatida baholanadi. Mazkur davrda aholi xarajatlari 69 994,5 so‘mni tashkil etib, uning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga (74,6 foiz) to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlariga 14 foiz, xizmatlarga 8,7 foiz va boshqa xarajatlarga 2,7 foiz mablag‘ sarflangan [5].

Aholi turmush darajasini baholashda oila xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqoriligi ijobiy holat sifatida qaralmaydi. 2003 yil yanvar–iyun oylarida Shahrisabz tumani aholisi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlariga jon boshiga 51 914 so‘m sarflangan. Mazkur ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 1999 yil 30 oktabrda tasdiqlangan iste‘mol me‘yorlari bilan taqqoslanganda sezilarli darajada past bo‘lib, talab etilgan 110 663 so‘mga nisbatan 58 747 so‘m kamni tashkil etgan. Ushbu holat aholi oziq-ovqat iste‘moli darajasi belgilangan me‘yorlardan ancha past bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Aholi turmush darajasini oshirish va oila daromadlarini ko‘paytirishning asosiy omili sifatida bandlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Bu borada Qashqadaryo viloyati, xususan Shahrisabz tumanida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2004 yil 26 fevralda “Mehr va muruvvat” yili doirasida tuman hokimining 17-f sonli farmoyishi qabul qilinib, kam ta‘minlangan 22200 ta oilaning yashash sharoiti o‘rganildi va ularning iqtisodiy holatini yaxshilash bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqildi [5].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur oilalarda bolalar 45 foizni, pensionerlar va nogironlar 15 foizni, mehnatga layoqatli aholi 40 foizni tashkil etgan. Mehnatga layoqatlilarning 24 foizi doimiy ishga ega emasligi aniqlanib, oilalar daromadini oshirish maqsadida mikrokreditlar ajratish mexanizmi joriy etildi. Shuningdek, 2006 yilgacha mo‘ljallangan bandlik dasturi ishlab chiqilib, yangi ish o‘rinlari yaratish, mavjudlarini kengaytirish va kasbga o‘qitish choralari belgilandi. Mazkur dasturga ko‘ra, 2003 yilga nisbatan 2006 yilda jon boshiga oylik oila daromadini 235 foizga oshirish rejalashtirildi. Oilaning iqtisodiy holati uning demografik tarkibi bilan uzviy bog‘liqligi inobatga olinib, 2004 yil 2 aprelda tuman hokimining 46-f sonli farmoyishi asosida maxsus ishchi guruh tuzildi. Ushbu guruh tomonidan hududdagi mahallalarda so‘rovnomma o‘tkazilib, oilalarning ijtimoiy-demografik holati, daromad va xarajatlari, salomatligi hamda turmush sharoitlari kompleks o‘rganildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yangi mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan respublikamizning barqaror ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun har bir viloyat, tumanning xududiy xususiyatlarini hisobga olib, hududning

ijgimoiy-iqgisodiy taraqqiyotini ta'minlab beradigan omillarni mukammal o'rganish davr talabi, kun tartibidagi eng dolzarb masaladir.

Umuman olganda, 2000-yillar boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Qashqadaryo viloyatida barqaror rivojlanish uchun zarur institutsional va iqtisodiy asoslarni yaratdi hamda aholi turmush darajasining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Mazkur davr tajribasi hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республика Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари. – 1992 йил январь.-№ 1-42. – Б. 23-26.
2. ЎзРПДАҚВФ, 846-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш, 58-варақ.
3. Халқ сўзи. 2004 йил. 10 феврал
4. Tuman mehnat bo'limi ma'lumotlari
5. Tuman statistika bo'limi ma'lumotlari

### **O'RTA OSIYODA SOVET KONSTITUTSIYAVIY TUZUMINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (1917–1924 YY.)**

*Xudayberdiyeva Dilafroz Mardanovna*

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*

*Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston hududida XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar hamda sovet davrida shakllangan konstitutsiyaviy tizimning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarida qabul qilingan konstitutsiyalar mazmuni, tuzilishi va ularning huquqiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, ushbu konstitutsiyaviy hujjatlarning jamiyatdagi siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan. Muallif sovet konstitutsiyaviy tizimining mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilib, uning tarixiy-huquqiy ahamiyatini baholaydi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston ASSR, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, konstitutsiya, sovet tuzumi, davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, saylov huquqi, milliy-hududiy chegaralanish, siyosiy islohotlar.

O'zbekiston hududida qadimgi va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan davlatlar o'ziga xos huquqiy tizim va boshqaruv an'analarni yaratgan bo'lib, ular keyingi davrlar uchun muhim tarixiy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Amir Temur davrida yaratilgan "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi va huquqiy tartibotning muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, xususan 1917-yilgi inqilobdan so'ng

Oʻrta Osiyo hududi Sovet davlati tarkibiga kiritilib, yangi siyosiy-huquqiy tizim joriy etildi. Natijada, Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari hamda keyinchalik Oʻzbekiston SSR hududida sovet tipidagi konstitutsiyaviy tuzum shakllantirildi.

Maʼlumki, Rossiya imperiyasida 1917 yil oktabr oyida davlat toʻntarishi boʻlib oʻtdi, oʻzlarini xalqparvar deb eʼlon qilgan, kommunistlar hokimiyatni qoʻlga oldilar. Shundan keyin Oʻrta Osiyoda oʻrnatilgan shovinistik tengsizlik natijasida milliy ozodlik harakatlari vujudga keldi. Boshqa millatlarni bir-biriga qarshi qoʻyish, (masalan dashnoqlarga, Oʻrta Osiyoda mahalliy xalqni qirgʻin qilishlariga sharoit yaratib berildi) kabi salbiy ishlarni amalga oshirdilar. Turkiston ASSRning 1918 va 1920 yillaridagi Konstitutsiyalari, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining 1920-1921-1923 yillardagi konstitutsiyalari, Oʻzbekiston SSRning 1927, 1937, 1978 yillardagi Konstitutsiyalarni qabul qilgan edi.

Sovetlar davrida Oʻzbekiston hududida 1918 yil 30 apreldagi Beshinchi Turkiston syezdida va Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi RSFSRning tarkibiga kiritilib, Turkiston ASSR ning muvaqqat (vaqtinchalik) konstitutsiyaviy “Nizomi” qabul qilingan edi [1]. Nizomga koʻra: Turkiston oʻlkasining hududi, Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirib, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi deb eʼlon qilinadi. Turkiston Sovet Respublikasi Avtonom boshqaruvda boʻlib, davlatdagi hamma sohalarni boshqarishda Rossiya Sovet Federatsiyasi hukumatini tan oldi. Turkiston ASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 15 oktabr kuni Sovetlar oʻlkasining VI syezdida 1918 yil 10 iyulidagi RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan edi. Turkiston ASSR Konstitutsiyasi olti boʻlimdan iborat boʻlib: I – mehnatkash va eksplutatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi; II – Umumiy qoidalar; III – Sovet hokimiyatining tuzilishi; IV – Aktiv va passiv saylov huquqi; V – Budjet huquqi; VI - Turkiston ASSR gerbi va bayrogʻi haqida [2]. Shuningdek, Turkiston ASSRning boshqa sohalardagi vakolatlari ham, shunday juda keng berilgan boʻlib, bu avtonom respublikaning tushunchasiga umuman toʻgʻri kelmas edi, chunki bu davrga kelib Rossiyadagi fuqarolar urushi tufayli Turkiston bilan vaqtincha aloqalar yaxshi yoʻlga qoʻyilmay qolgan edi [3].

Turkiston ASSRning ikkinchi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentabrda Turkiston Sovetlarining IX-syezdidagi Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi tomonidan sanksiyalangan: “Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi sifatida avtonomdir” degan qarori ostida qabul qilinib, Turkiston ASSRning “qanday yashash huquqi” aniq qilib qoʻyilgan edi. Turkiston ASSRning bu Konstitutsiyasi: 6 boʻlim 20 bobdan iborat boʻlib, 109-moddani oʻz ichiga olgan. Turkiston ASSRning 1920

yildagi Konstitutsiyasi o'sha paytdagi Rossiyadagi milliy qonuniyatlari asosida o'zlarining yashash tarziga asoslanib qabul qilingan.

Turkiston ASSR bilan birga hozirgi O'zbekiston hududida Xorazm va Buxoro xalq Sovet Respublikalarida ham 1920-1923 yillardagi Konstitutsiyalar qabul qilingan. 1919 yil noyabr oyida kommunistik tuzum dohiysi Leninning tashabbusi bilan Xorazm davlati bosib olinib, Xiva xonligining o'rnida yana bir Sovetlar davlati tashkil qilindi, bu voqea 1920 yil fevral oyida to'liq amalga oshirilgan [4].

1920-yil 27-30-aprelda Butun Xorazm Sovetlarining syezdi o'tkazilib, uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qilgan. Konstitutsiya: 13-bob 37-moddadan iborat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining tuzilishi ijtimoiy tuzum va fuqarolarning huquq va erkinliklari, Sovetlarga saylov o'tkazish tartib- qoidalarini o'z ichiga olgan [5]. Konstitutsiyaning kirish qismining 2-moddasida Xivada sanoat yaxshi rivojlanmagani, sinfiy kurash ham Xiva xalqi o'rtasida avj olmaganligi ta'kidlanib, davlat qurilishi haqidagi bobning 5-moddasida " ... mamlakatni barcha Xorazm xalqi o'z vakillari orqali bilvosita boshqaradi», deb qayd etiladi. 1920 yil 11 mayda butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida Qaror qabul qilgan.

1923 yil 20 oktabrda IV-Butun Xorazm Sovetlarining IV-syezdidida ikkinchi Konstitutsiya qabul qilingan. Konstitutsiya V bo'lim, 12 bob, 44 ta moddadan iborat bo'lgan [6]. Bu Konstitutsiyada quyidagi tabaqadagi odamlar saylash va saylanish huquqlaridan mahrum etilganlar: ishlamasdan birovlarining kuchidan foydalanayotganlar, ishlamasdan pul topayotganlar, dallollar, ruxoniylar va hokazo.

Buxoroda Sovet hokimiyatni o'rnatish uchun uning Konstitutsiyasi qabul qilingungacha 1921 yil 21 iyunida BXSRning, joylardagi "Sovet hokimiyati" to'g'risidagi vaqtinchalik nizomi qabul qilingan. Nizomda viloyat, tuman, qishloq inqilobiy qo'mitalari tuzilishi va ularning huquqlari belgilab berilgan [7].

1921 yil 18-23 sentabrda II Butun Buxoro Sovetlarining syezdi chaqirilib, BXSR Konstitutsiyasini qabul qilgan. Konstitutsiya 5-bo'lim, 16 bobni o'z ichiga olib, 79 ta moddadan iborat bo'lgan. BXSR Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquqlar berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi. Konstitutsiyaga ko'ra BXSRning oliy organi – Butun Buxoro xalq vakillari qurultoyi bo'lib, u har 2000 saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a'zodan iborat edi [8]. Shuningdek, Konstitutsiyaning oxirgi boblarida saylovni tashkil etish va unda ishtirok etuvchilarning huquqlari 20 yoshdan qilib belgilangan. Xalq sudlari haqidagi nizom ham oxirgi bobga kiritilgan. Sovetlarning fuqarolarga erkinliklar berish, davlat organlari ishini tashkil etish kabi tartib qoidalarining milliy mustamlaka

davlatlar Konstitutsiyalarida shunchaki ko‘rsatib qo‘yilishi kommunistlarning bu sohadagi tajribasini anchagina oshirib yuborgan.

Buxoro hukumatida Turkistondan yuborilgan emissarlarning ta’siri tobora kuchayib bordi. Kommunistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan 14-avgustda bo‘lgan MIK favqulodda sessiyasida Konstitutsiya matniga o‘zgartirish kiritishga muvaffaq bo‘ldilar. 1923-yil 11-17-oktabrda bo‘lib o‘tgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV qurultoyi Konstitutsiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqladi [8]. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoy jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradigan “sovet qurilishi to‘g‘risida” nomli maxsus qaror qabul qildi. Jamiyat tobora siyosiy lashib bordi. Buxoroda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlarning taqdiri xavf ostida qoldi.

Xullas, 1918–1924-yillar oralig‘ida O‘zbekiston hududida shakllangan konstitutsiyaviy tizimlar sovet siyosiy tuzumining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Turkiston ASSR, Xorazm va Buxoro xalq respublikalarida qabul qilingan konstitutsiyalar tashqi jihatdan demokratik tamoyillarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, amalda markazlashgan boshqaruv tizimiga bo‘ysungan holda faoliyat yuritgan. Mazkur konstitutsiyalarda fuqarolarning huquq va erkinliklari, saylov tizimi hamda davlat hokimiyati organlari faoliyati belgilab berilgan bo‘lsa-da, real siyosiy jarayonlarda bu normalar to‘liq amalga oshirilmagan. Muhim davlat vakolatlari markaz ixtiyorida saqlanib qolganligi sababli respublikalarning haqiqiy suvereniteti cheklangan. Shu bilan birga, mazkur davr konstitutsiyaviy jarayonlari keyingi bosqichlarda O‘zbekiston SSR konstitutsiyalarining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ularni tarixiy-huquqiy jihatdan o‘rganish O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyotining murakkab bosqichlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Наша газета. 1918. 5 мая
2. Первая Конституция Союза ССР (Конституция СССР 1924 г.). Сборник документов. – М., 1948. – С .154.
3. Қаюмов Р.Қ. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Т.: 1997. – Б. 55.
4. Кошанов Б. Сейтназаров М. Революция? Вторжение? Событие в Хивинском ханстве(1919-1920 гг.). - Нукус: Билим, 1997. - С. 30.
5. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). Сборник документов. - Ташкент, «Фан», 1976. - С. 41 - 46.
6. O‘zMA 71-fond 1-ro‘yxat 37-ish 116-117 varaqlar.

7. История Бухарской Народной Советской Республики (1920— 1924 гг.). С. 229-231.
8. Ражабов К., Бухоро Халк, Совет Республикаси //У збекистан миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: 2001. – Б.299-302.

## **O‘ZBEKISTON HUDUDIDA SOVET DAVRI KONSTITUTSIYAVIY TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (1917–1991 YILLAR)**

*Xudayberdiyeva Dilafruz Mardanovna*  
*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*  
*Tarix yo‘nalishi 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida sovet davri konstitutsiyaviy tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1917-yilgi siyosiy o‘zgarishlardan so‘ng Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari hamda keyinchalik O‘zbekiston SSRda joriy etilgan konstitutsiyaviy tuzumlar rivoji yoritilgan. Shuningdek, 1927, 1937 va 1978-yillarda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalarining mazmuni, tuzilishi va ularning siyosiy-ideologik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada sovet konstitutsiyalarida e‘lon qilingan huquq va erkinliklarning amaliyotda cheklanganligi, hokimiyatning markazlashuvi hamda kommunistik partiyaning ustuvor roli ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, Turkiston ASSR, Buxoro XSR, Xorazm XSR, O‘zbekiston SSR, konstitutsiya, sovet davri, markazlashgan boshqaruv, kommunistik partiya, huquqiy tizim, davlat tuzilishi, milliy davlat chegaralanishi, konstitutsiyaviy rivojlanish, 1917 yil inqilob, 1991 yil mustaqillik.

O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilishi natijasida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalarining o‘rnida O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg‘iziston va Qoraqalpog‘iston Avtonom viloyatlari tashkil etilgan. Hozirgi O‘rta Osiyo respublikalarining konstitutsiyaviy-tarixiy davlat qurilishi sobiq ittifoq hukmronligiga o‘tgan davrdan boshlab, 1917 yilgi soxta kommunistlarning (davlat to‘ntarishi) inqilobi yuz bergan vaqtdan to 1922 yilga qadar jarayonlarni o‘z ichiga oladi. 1922 yil 30 dekabrda “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining tuzish haqidagi deklaratsiya” va “SSR ittifoqining tuzish haqidagi shartnoma” SSSR konstitutsiyasini yaratilishiga asos solgan edi.

“SSR ittifoqini tuzish haqida deklaratsiya”da teng huquqli ittifoqdosh respublikalarning ixtiyoriy ravishda birlashuvini e‘lon qilib, uning tarkibiga boshqa davlatlarning kirishi ochiq deb ko‘rsatildi. Shuningdek undan chiqish erkinligi huquqi ham belgilangan edi. “SSR ittifoqini tuzish haqidagi shartnomada” uning

tarkibiy qismi bo'lgan respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni belgilab berdi. Bu hujjatlarning tuzilishi jihatdan demokratiyaviyligi xalqaro huquq normalari darajasida edi. Lekin amalda SSSR tarkibiga kirgan respublikalar ijtimoiy-siyosiy hayoti KPSS qarorlari asosida tartibga solinib "markaz"lashtirilgan edi. Konstitutsiya va qonunlar ikkinchi darajali hisoblanib, kommunistik g'oya yakkaxokimchilikka moslashtirilib kelingan. Natijada uning hukmronligida bo'lgan xalqlarning davlatchilik rivojlanish bosqichlarini o'zgarib, bir necha yuz yil orqaga surib yubordi [1].

Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalar konstitutsiyaviy tarixiy bosqichlarini ikki davrga bo'lib, tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Birinchi davr 1917-1922 yillarni o'z ichiga olsa, 1924-1991 yillar so'nggi davri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiya loyihasi Sovetlarining II-syezdida 1927 yil 27-31 mart kunlari tasdiqlangan. Bu Konstitutsiyada ham boshqa Ittifoq respublikalari Konstitutsiyalaridagidek, davlat hokimiyati vakolatlarini "ishchi dehqon va qizil askar Sovetlarining deputatlari amalga oshiradilar", deb belgilangan [2]. SSSR o'z tarkibidagi Respublikalarni yanada Markazga qaram qilib turish uchun ular o'rtasidagi nizolarni ularning Konstitutsiya va qonunlaridan boshlab o'z siyosatida ham doimo nazarda tutib kelgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada, milliy davlat tuzilganligi, xususiy mulk bekor qilinganligi va davlat organlarini tuzish tartibi, qonunchilik, huquq-tartibot organlarining dasturiy ko'rsatmalari va ularni tashkil etish qoidalari ko'rsatib berilgan. O'zbekistondagi barcha tabiiy boyliklar, zavodlar, fabrikalar davlat mulki deb e'lon qilingan.

1937 yil 14 fevralda Butun O'zbekiston Sovetlarining Favqulotda VI-syezdi O'zSSRning ikkinchi Konstitutsiyasini SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasiga mos ravishda qabul qilgan [3]. Bu Konstitutsiya 13 bobdan iborat edi. Ushbu qabul qilingan O'zbekiston SSRning ikkinchi Konstitutsiyasi SSSRning 1936 yilgi Konstitutsiyasini so'zma-so'z takrorlaydi. Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolarning teng huquqliligi, matbuot erkinligi, ommaviy yig'ilishlar o'tkazish, ko'chalarda namoyish o'tkazish huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Bu huquqlar faqat qog'ozlarda SSSRdagi siyosatning boshqa davlatlarga namoyish etilishi uchun yozib qo'yilgan.

O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetining qonunchilik vakolati bekor qilinib, O'zSSRning Oliy Soveti yagona qonunchilik organi deb belgilangan. Oliy Sovet o'zining Prezidiumini saylagan: Rais, 3 ta muovini, kotib va 13 ta a'zodan iborat tarkibda tashkil topgan. Bu Konstitutsiyaning qabul qilinish davrida SSSR tarkibiga kiruvchi ittifoqdagi respublikalar hayotida muhim siyosiy o'zgarishlar

yanada avj oldirilib yuborilgan edi, “markaz” rahbari Stalin tashabbusi bilan “kollektivlashtirish”, “xalq dushmanlari” shiorlari ostida millionlab ko‘p millatli xalqlar o‘z vatanlaridan surgun qilinganlar. Konstitutsiya va qonunlarda ko‘rsatib o‘tilgan inson huquqlari qo‘pol poymol etilgan. O‘zbekiston xalqi bosmachiga aylandi, yuz minglab odamlar uzoq o‘lkalarga qatog‘on qilingan, sud qilinmasdan otib tashlangan.

1978 yili O‘zSSRning uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan. 1978 yil 19 mart kuni O‘zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi mutbuotda e‘lon qilingan. O‘zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O‘zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktabrida amalga kiritilgan [4]. Konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib ayrim moddalariga o‘zgartirishlar kiritilgan va 19 aprel kuni qabul qilingan. Konstitutsiyaning tuzilishi kirish qismidan, XI bo‘lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo‘lib, ushbu Konstitutsiyada ham Sovet hokimiyatini amalga oshish qoidalari va ishchi dehqon sinfining kommunistik jamiyat qurishdan iborat oliy maqsadi belgilab berilgan. Masalan, Konstitutsiyaning kirish qismida, “xalq davlat hokimiyatini Sovetlar orqali amalga oshiradi” deb “kommunistik partiyaning jamiyat hayotidagi rahbarligi va yetakchilik qilishi”ga ko‘p ta’rif berilgan. 70 yildan oshiqroq vaqt davomida qabul qilingan Konstitutsiyalarda xalq hokimiyati haqida chiroyli so‘zlar bayon qilingan, lekin amalda joylarda tuzilgan viloyat, tuman, shahar, qishloq va posyolka Sovetlari kommunistik partiya dasturlari, rejaları bilan tashkil qilingan, soxta saylovlar o‘tkazilgan jamiyat va davlat hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan.

1977 yildagi SSSR Konstitutsiyasi Sovet Ittifoqida “markaz”dan davlat boshqaruvining tuzilish shaklini belgilab bergan. XIX Umumittifoq partiya konferensiyasi materiallarida, KPSS platformasi: "Hozirgi shart-sharoitlarda partiyaning milliy siyosati", Sovet Ittifoqini yangilash g‘oyalari ilgari surildi, hayotiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan boyitish nazarda tutilgan. “markaz” oldidagi respublikalarning majburiyatlari, vazifalarini mustahkamlab bergan: “SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalarning huquqiy va hayotiy rivojlanishini o‘rganishda, shunga diqqatni jalb etish lozimki, partiya va davlatning milliy siyosatni amalga oshirishdagi kamchiliklari tufayli Sovet Ittifoqi tarkibiga zo‘rluk bilan kiritilgan respublikalar yanada “markaz”ga qaram davlatga aylanib borganlar, shu bilan birga, kam sonli xalqlarning huquqiy holatida hech qanday o‘zgarishlar, siljishlar bo‘lmagan. Konstitutsiya va qonunlar tez-tez o‘zgartirilgan. Natijada, Ittifoqning inqirozi tarqalib ketishi tezlashgan va milliy munosabatlar sohasida murakkab vaziyatni keltirib chiqargan. 1991 yilning 19-21 avgust kunlari

Moskvada sodir bo'lgan davlat to'ntarishi, SSSRning imperiya sifatida bundan buyon hukmronlik qilishga qodir emasligini ma'lum qilib qo'ydi.

Xullas, sovet davrida qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyalari (1927, 1937, 1978 yy.) mazkur davrning siyosiy-huquqiy tizimini aks ettiruvchi muhim hujjatlar hisoblanadi. Ular orqali respublika hududida sovet hokimiyati mustahkamlanib, davlat boshqaruvi markazlashgan tarzda tashkil etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu konstitutsiyalar rasmiy jihatdan fuqarolarning huquq va erkinliklarini e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda ular to'liq ta'minlanmagan. Davlat hokimiyati kommunistik partiya nazorati ostida bo'lib, siyosiy pluralizmga yo'l qo'yilmagan, saylov tizimi esa ko'proq formal xarakter kasb etgan.

Shuningdek, konstitutsiyalarda respublikalarning suvereniteti haqida qoidalar mavjud bo'lsa-da, ular amalda markaz – SSSR rahbariyatiga qaram holda faoliyat yuritgan. Bu esa milliy davlatchilik rivojiga jiddiy to'sqinlik qilgan hamda jamiyatning siyosiy va huquqiy taraqqiyotini cheklagan. Umuman olganda, Sovet davri konstitutsiyalari O'zbekiston hududida yangi tipdagi davlat boshqaruvi tizimini shakllantirgan bo'lsa-da, ular real demokratik tamoyillardan yiroq bo'lgan. Ushbu tarixiy tajriba mustaqillikdan so'ng milliy konstitutsiyaviy tizimni shakllantirishda muhim saboq vazifasini o'tab, 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishiga zamin bo'lib xizmat qildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т.: 2001. – Б.299-302.
2. Конституция Узбекской Советской Социалистической Республики. Самарканд, 1927.
3. Конституция Узбекской Советской Социалистической Республики. Ташкент, 1938.
4. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасинин Конституцияси (Асосий Қонуни). – Т., “Ўзбекистон”, 1978. 48 б.

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH  
TIZIMINING RIVOJLANISHI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

*Turdibekov Sarvarjon Anvar o‘gli*  
*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti*  
*Tarix yo‘nalishi 2 kurs magistranti.*  
*sarvarjon05@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar Samarqand viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda 1990-yillarning boshlaridagi tizim holati, 1998–2005 yillarda qabul qilingan davlat dasturlari, tibbiy muassasalarning modernizatsiyasi hamda shoshilinch tibbiy yordam tizimining shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, islohotlarning aholi salomatligi ko‘rsatkichlariga, o‘rtacha umr davomiyligiga va tibbiy xizmat sifatiga ta’siri o‘rganilgan. Natijalar sog‘liqni saqlash tizimining bosqichma-bosqich rivojlanib, xalqaro standartlarga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Sog‘liqni saqlash, islohotlar, Samarqand viloyati, tibbiy tizim, birlamchi tibbiy yordam, shoshilinch tibbiy yordam, poliklinika, statsionar, tibbiyot muassasalari, aholi salomatligi, o‘rtacha umr, modernizatsiya, davlat dasturi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalar qatori sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va modernizatsiya etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. 1990-yillarning boshlarida respublika sog‘liqni saqlash tizimi nisbatan keng qamrovli bo‘lsa-da, moddiy-texnik baza eskirganligi, yuqori texnologik diagnostika va davolash imkoniyatlarining cheklanganligi hamda bolalar va onalar o‘limi darajasining yuqoriligi kabi muammolar mavjud edi. 1998 yildan boshlab sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilinib, birlamchi tibbiy yordam tizimini mustahkamlash, qishloq vrachlik punktlarini rivojlantirish va umumiy amaliyot shifokorlari institutini joriy etish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu islohotlar Jahon banki va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilib, tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qildi.

1990-yillari boshida O‘zbekiston yetarli darajada rivojlangan sog‘liqni saqlash tizimiga ega bo‘lgan. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari va shifoxonalarning rivojlangan tarmog‘i, profilaktika ishlari, bolalarni emlash, tibbiyot xodimlarini kasb-hunari tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yaxshi tashkil etilgan edi. Shu bilan birga, aholii salomatligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar sobiq Ittifoq respublikalarasi orasida past darajada edi.

Manbalarning ma'lumot berishicha, bu davrda bolalar va onalar o'limi darajasi juda yuqori bo'lgan. Bundan tashqari, tibbiyot muassasalari kasalliklarni yuqori sifatli tashxis qo'yish va davolashni ta'minlay olmaydigan eski asbob-uskunalar bilan jihozlangan edi. Hatto, ixtisoslashgan klinikalarda ham asbob-uskunalar va xodimlar malakasining yetishmasligi tufayli diagnostik va davolashning ko'plab yuqori texnologik turlaridan foydalanilishning iloji yo'q edi [1].

1998 yildan sog'liqni saqlashning rivojlanishida yangi davr boshlandi. 1998 yil 10 noyabrda O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining farmoni bilan 1998-2005 yillarda sog'liqni saqlash tizimini kayta qurish Davlat dasturi qabul qilindi. Unda mamlakat aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish tadbirlari ko'rsatib berildi. Bu dastur asosida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inini mustahkamlash va umumiy vrachlik amaliyatini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Hamma viloyatlarda qishloq vrachlik punktining keng tarmoklari tashkil etildi, natijada ikki bosqichli, ya'ni qishloq vrachlik punkti hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali tibbiy erdam ko'rsatish yulga kuyildi. Mazkur ishlar Jahon banki bilan hamkorlikda «Salomatlik» loyihasi asosida amalga oshirildi. Bu sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va umumiy amaliy tibbiy xodimlar tayyorlash imkonini berdi [2].

Ana shu dasturga binoan 1998-2005 yillar davomida viloyatning turli joylarida 6 ta tibbiyot muassasasi ishga tushirildi. Jumladan, Samarqand shahridagi 3-son tug'ruqxonaning 100 o'rinli, viloyat yurak kasalliklari shifoxonasining 60 o'rinli, viloyat 1-sil kasalliklari shifoxonasining 90 o'rinli korpuslari, Kattaqo'rg'ondagi 150 qabulga mo'ljallangan poliklinika, Samarqand shahrida 150 o'ringa mo'ljallangan shifoxonaning suv bilan davolash binolari qurilib ishga tushirildi [3]. 2013 yilga kelib Samarqand viloyatining aholisi 3 mln. 380,7 ming kishini tashkil qilgan bo'lib, ularning 61,1 foizi qishloq aholisi, 38,8 foizi shahar aholisi, 50,1 foizi erkaklardan tarkib topgan. Aholi soni 2011 yilga nisbatan 2013 yilda 53,5 ming kishiga oshgan bo'lib, aholining o'sish ko'rsatkichi 1,6 foizni tashkil qildi [4].

Amalga oshirilgan ishlar ichida eng e'tiborlisi, viloyat shoshilinch tez tibbiy yordam markazining ochilgani bo'ldi. Bu markaz respublikada birinchi bo'lib Samarqand tibbiyot oliygohi 2-klinikasi negizida 400 o'rinli viloyat "Shoshilinch tez tibbiy yordam" markazi sifatida Samarqandda tashkil etildi. Viloyatning Chelak, Paxtachi, Taylok, Nurobod, Samarqand va Jomboy tumanlarida shoshilinch tibbiy yordam markazining bo'limlari ishga tushirildi. Prezident Farmoni ijrosini ta'minlash doirasida mavjud bulgan 16 tumandan 2000 yilga kelib 10 tasida shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limlari ta'mirlanib ishga tushirildi.

Qolgan 6 tasida ta'mirlash ishlari davom ettirilib tugallandi. Yuqoridagi bo'limlarni ishga tushirishda asosiy kamchiliklar ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash ishlari biroz qiyin kechdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sog'liqni saqlashning milliy modeli yaratilib, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat darajasining oshirilishiga, aholi salomatligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga erishildi [5]. Statistik ma'lumotlarda 2002-yilda 5626 o'rinli 37 ta va 2006-yilda 5791 o'rinli tibbiy muassasalar mavjud edi [6]. Viloyat hokimi sifatida Sh.Mirziyoyev aholi salomatligi masalalariga e'tibor bergan. Jumladan, 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Shoshilinch tibbiy markazining Samarqand filiali tashkil etilgan. Bu muassasa tibbiy xizmat ko'rsatish sifati jihatidan respublikadagi eng zamonaviy shifoxonalar qatoridan o'rin olgan Chaqaloqlarni gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ham 2002 yildan boshlab yo'lga qo'yilgan [7].

2007–2013-yillarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Samarqand filialiga Islom taraqqiyot banki hisobidan 78 turdagi, KFAER banki hisobidan 25 turdagi 435 ta tibbiy asbob-uskuna hamda 7 ta “HYUNDAI”, 61 ta “DAMAS” sanitari avtomashinalari keltirilgan [8].

Samarqandda 2002-yilda 44 ta vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari [6], 2006-yilda esa 35 ta shifoxona hamda 76 ta vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat yuritayotganligi qayd etilgan. 2015-yil holatiga ko'ra, qayta tashkil qilish va modernizatsiyalash jarayonlarida Samarqandda 21 ta davolash-profilaktika muassasalari, 1055 o'ringa mo'ljallangan 7 ta statsionarlar (jumladan, teri-tanosil kasalliklari dispanseri), bir smenada 3913,3 taga mo'ljallangan 15 ta ambulator-poliklinika muassasalari (11 ta oilaviy poliklinikalar, 1 ta shahar markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasi, 1 ta stomatologiya poliklinikasi va sil kasalliklari dispanseri)da aholiga yuqori darajada tibbiy xizmat ko'rsatilib kelindi [1].

Xullas, mustaqillik yillarida O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida tub sifat o'zgarishlari amalga oshirildi. Xususan, 1998–2005 yillarda qabul qilingan davlat dasturlari asosida birlamchi tibbiy yordam tizimi shakllantirildi, yangi tibbiyot muassasalari qurildi hamda mavjud shifoxonalar modernizatsiya qilindi. Samarqand viloyati misolida shoshilinch tibbiy yordam markazlari tashkil etilishi, poliklinikalar va statsionarlar sonining oshishi, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta'minlash jarayoni sog'liqni saqlash sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Natijada aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi oshdi, ayrim yuqumli kasalliklar bartaraf etildi va tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi xalqaro standartlarga yaqinlashdi. Shu bilan birga, dastlabki bosqichlarda moddiy-texnik ta'minot va kadrlar malakasi bilan bog'liq ayrim muammolar saqlanib qolgan bo'lsa-da, bosqichma-bosqich amalga

oshirilgan islohotlar sogʻliqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi. Sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilishda zamonaviy bosqichning asosiy yoʻnalishlari. Samarqand, 2016. № 298. – B.1.
2. Файзуллаев Т., Саримсоқов Т. Мустакил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий ривожланиши (ўқув-услубий қўлланма). - Наманган, 2013. – Б.185
3. Ҳали қиладиган ишларимиз кўп // Зарафшон газетаси 2000 й.17 июнь. – Б. 3.
4. Республика Саломатлик ва тиббий статистка институти 2013 йил ҳисоботи.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 10 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш тизimini ислоҳ қилиш Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2107-сонли Фармони
6. Самарқанд вилояти Статистика бошқармаси: Статистик тўплам. 1997-2006. Самарқанд, 2007. – Б. 76.
7. Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Самарқанд шаҳар паспорти. Самарқанд, 2017. – Б.15
8. Самарқанд вилояти ҳокимлиги. Вилоятда ижтимоий соҳаларда 2008-2014 йиллар давомида амалга оширилаётган ютуқлар ва ўзгаришлар тўғрисида. Самарқанд, 2014.

## THE COMBINATION OF VISUAL AND DRAMATIC SOLUTIONS IN THE THEATER: COOPERATION OF THE DIRECTOR AND SCENOGRAPHER

*Sadullayeva Kamola Olimovna*

*Uzbek State Academy of Choreography*

*Lecturer at the Department of "Theory and History of Art"*

*Independent researcher at UzDSMI*

**Abstract.** This article examines the theoretical and artistic foundations of creative collaboration between a theatre director and a stage designer in the context of Uzbek theatre art. The main focus is placed on the long-term creative partnership of director Bahodir Yuldashev and scenographer Georgiy Brim. Through the analysis of their joint productions, the study reveals the interaction between directing concepts and scenographic space, the use of symbolism, conditionality, and metaphor as key elements of modern stage language. Particular attention is given to the integration of Eastern philosophical aesthetics with Western theatrical expressiveness.

**Keywords:** director and designer collaboration, scenography, Bahodir Yuldashev, Georgiy Brim, symbolic theatre, stage space.

**Annotasiya.** Mazkur maqolada o'zbek teatr san'atida rejissyor va sahnalashtiruvchi rassom ijodiy hamkorligining nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Asosiy e'tibor taniqli rejissyor Bahodir Yo'ldoshev va sahna rassomi Georgiy Brinning uzoq yillar davom etgan ijodiy tandemiga qaratilgan. Ularning hamkorligi misolida rejissyorlik konsepsiyasi va ssenografik fazoning o'zaro uyg'unligi, ramziy va shartli sahna yechimlari, Sharq va G'arb teatr an'analarning sintezi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** rejissyor va rassom hamkorligi, ssenografiya, Bahodir Yo'ldoshev, Georgiy Brim, ramziy teatr, sahnaviy makon.

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические и художественные основы творческого сотрудничества режиссёра и театрального художника в развитии узбекского театра. Центральное место занимает анализ многолетнего творческого тандема режиссёра Баходира Ёлдашева и сценографа Георгия Брима. На примере их спектаклей раскрывается взаимосвязь режиссёрской концепции и сценографического пространства, роль символики, условности и метафорического мышления в формировании современного сценического языка. Особое внимание уделяется синтезу восточной философско-эстетической традиции и западной театральной выразительности.

**Ключевые слова:** режиссёр и художник, сценография, Баходыр Юлдашев, Георгий Брим, символический театр, сценическое пространство.

In theatrical art, the creative cooperation of the director and the artist is a reality with a common goal, common aspirations, and a close core and basis. The director strives for commonality, as K.S. Stanislavsky and V. Nemirovich-Danchenko have repeatedly noted, "he is the person responsible for ensuring that the whole organism works in accordance with the general idea." However, there is a difference between the director's vision and the artist's vision. The director creates roles and images on the stage, while the artist decorates these roles, images and the stage with visual art tools (decoration, "backdrop", panels, stage equipment, colorful decorations, lighting, etc.). In the artist's art of decoration, the idea, goal, and essence of the performance that the director has in mind proceed from the director's perspective. He brings visual tools to the stage, to the actors' actions and to the environment in which the characters live, to closeness to life, to visual objectivity. The artistic integrity of a play is formed by the director and his ideological goal, methods, and stage solutions. The artist places the visual decorations relevant to the play in their places. Creative cooperation between the director and the artist begins with the preparation of a model or sketch of the play. The artist must have read the play with a scenographic eye, clearly imagine the plot, characters, and scenes in it. However, the artist chooses the style of artistic decoration of the play in accordance with the director's goal and idea. It is this common goal and idea that unites them and encourages creative cooperation. The artist cannot help but include his imagination in his sketches and models, "backstage" and stage decorations. He can even enrich and change the director's ideas. This is how Georgy Brim influenced Bakhodir Yuldoshev. "The result of this unity in the history of theater, in particular in the history of the Uzbek theater, should be a school for generations, studied, and observed as the brightest page of our national theater. A whole artistic phenomenon emerged from this unity, and now the responsibility of restoring and stabilizing such theaters falls on the shoulders of generations." The collaboration of B.Yuldoshev and G.Brim constitutes a separate artistic stage in the development of Uzbek theater art. In their creative tandem, the interaction between the director's concept and the scenographic environment determined not only the aesthetics of the performances, but also the emergence of a modern form of the national theater style.

It is worth noting that the tandem of B.Yuldoshev and G.Brim (the first to use the term "tandem" for the collaboration of these two individuals was Professor D.Kadirova, a member of the Academy of Sciences of Uzbekistan) was not completely ineffective. The creative cooperation, that is, the tandem of director

Ibodulla Niyozmetov and artist Otakhon Olloberganov (Khorezm Theater), Bakhtiyor Ikhtiyorov and Alexander Zhiboyedov (Muqimi Theater), Rustam Hamidov and Ubaydulla Saydaliyev, Valijon Umarov and Bakhtiyor Turayev (Hamza Theater), Mansur Ravshanov and Viktor Mikhailichenko (Surkhandarya Theater), began to bear positive fruit. "However, G.Brim does not take the lead in searching for new ways, new styles and means in the field of stage images." The creative collaboration of G. Brim and B. Yuldoshev (which lasted more than 30 years until G. Brim's death) began in the 70s. As theater critics have repeatedly noted: "The processes of development of scenography of the 70s, the process of increasing the role of visual solutions in performances, were uniquely and fully manifested in the work of Georgy Brim. His ability to subordinate his personal idea to the clear expression of the ideas of the drama and the desire to find an expression of dramaturgical contradictions naturally lead to the development of dramatic ideas in scenography." The creative collaboration of the two great personalities was fruitful and at the same time very important. According to the unanimous opinion of art critics, the performances they created became a bright stage in the development of not only theater scenography, but also the entire Uzbek theater. The first collaboration of the two creators began with the play "Abu Rayhon Beruniy" (1974), staged at the Hamza Theater. First of all, the theme itself required the restoration of traditional forms that formed the classical basis of the Uzbek theater, as well as the careful selection of such means of expression. The creative tandem of B.Yuldoshev and G.Brim also set itself the task of creating performances in the national spirit. They sought to eliminate a certain inconsistency between the theatrical form and the national content and the gap between these concepts, to stage performances not only in the Uzbek language, but also in the national spirit. The scenography brought to the theater by G.Brim and enriched by B.Yuldoshev's directorial thinking reflects the world of the artist and director, their attitude to life, and their artistic views. In some productions, the artist and director recreate complex, thought-provoking performance constructions, in others they realistically and accurately depict architectural elements, and in still others, they solve the visual image of the performance in a very conditional way, using the simplest visual and expressive means, thereby demonstrating the integration of national and world stage art traditions. In the play "The Pirates", the artist G. Brim continued the process of a new approach to the area of the artistic and conventional expressive language of the theater. The "language" of the decoration was directed to directly appeal to the viewer's associative thinking, to actively stimulate artistic perception, to think. In working on this performance, a new stage of the creative duo of director B.Yuldoshev and artist G.Brim has begun.

Starting to stage the work, B.Yuldoshev explains to G.Brim that their true creative unity should emerge in the performance. Although the two creators had previously worked together on performances, this tragedy “The Pirates” truly brought the two creators closer. “This work will either be one of our greatest achievements, or our failure...” In the performance, B.Yuldoshev’s talent for a deep literary and artistic interpretation of the work and G.Brim’s original stage decorative solution complemented each other. G.Brim’s scenography expresses the artist’s philosophical world, his attitude to life, and his views. The artist uses the simplest figurative and expressive means in this performance, solving the artistic solution very conditionally. In the process of working on the play “I Believe in Chile”, together with the director G. Brim, he further deepens the formal research that he began earlier. This time, B. Yuldashev forces the actors to actively communicate with the scenography, which leads to a stage rhythm that is consistent with the dynamism, expression and high energy that are rare in the Uzbek theater. As a result, stage life develops not only in accordance with the requirements of dramaturgy, but also in accordance with the dynamic environment created by the scenography. In this way, the cooperation of the director and the artist gives the actor's play a new rhythm, a new style and unconventional expressive possibilities. G. Brim has a very bright and deep understanding of the East with all its colors. For example, the blue background decorated with national melodies in the play “The Revolt of the Brides” more vividly reflects the beauty of the local landscapes. "The stage decorations of the performance demonstrate the artist's love for nature and the way of life of the Uzbek people," writes "Pravda Vosto". The artist uses the simplest figurative and expressive means in this performance, solving the artistic solution very conditionally. In the process of working on the play “I Believe in Chile”, together with the director G. Brim, he further deepens the formal research that he began earlier. This time, B. Yuldashev forces the actors to actively communicate with the scenography, which leads to a stage rhythm that is consistent with the dynamism, expression and high energy that are rare in the Uzbek theater. As a result, stage life develops not only in accordance with the requirements of dramaturgy, but also in accordance with the dynamic environment created by the scenography. In this way, the cooperation of the director and the artist gives the actor's play a new rhythm, a new style and unconventional expressive possibilities. G. Brim has a very bright and deep understanding of the East with all its colors. For example, the blue background decorated with national melodies in the play “The Revolt of the Brides” more vividly reflects the beauty of the local landscapes. "The stage decorations of the performance demonstrate the artist's love for nature and the way of life of the Uzbek people," writes "Pravda

Vosto "The artist uses the simplest figurative and expressive means in this performance, solving the artistic solution very conditionally. In the process of working on the play "I Believe in Chile", together with the director G. Brim, he further deepens the formal research that he began earlier. This time, B. Yuldashev forces the actors to actively communicate with the scenography, which leads to a stage rhythm that is consistent with the dynamism, expression and high energy that are rare in the Uzbek theater. As a result, stage life develops not only in accordance with the requirements of dramaturgy, but also in accordance with the dynamic environment created by the scenography. In this way, the cooperation of the director and the artist gives the actor's play a new rhythm, a new style and unconventional expressive possibilities. G. Brim has a very bright and deep understanding of the East with all its colors. For example, the blue background decorated with national melodies in the play "The Revolt of the Brides" more vividly reflects the beauty of the local landscapes. "The stage decorations of the performance demonstrate the artist's love for nature and the way of life of the Uzbek people," writes Z. Kalonova, a correspondent for the newspaper "Pravda Vostoka". The unique nature of Uzbek national art was clearly felt in the scenography of the performance. In the work "Living Corpse", one of the bright examples of Russian classics, the cooperation of the director and the artist also showed its positive result. "...In the mesh of the stage, behind the curtains, filling it with its entire height, human figures frozen in various positions are clearly visible. There are many of them - women, men, old people in a trance: they fill the stairs behind the rich and nobles who lined up in the first row. The fluttering curtain embodies the negative characters of the discontented nobles." As a result of the mutual combination of artistic and directorial solutions in the play, the space typical of classical dramaturgy is transformed into a metaphorical stage space, and the philosophical layers of the work are widely revealed. As a result, the scenography of the play has become an integral part of the director's idea, one of the active elements that enhance its meaningful energy. G. Brim's creative research has formed a new way of thinking and a new angle of view in the art of scenography. His decorative "language" directly appeals to the associative thinking of the viewer, activates perception, and encourages thinking. The scenography that G. Brim brought to the theater has become an independent artistic system expressing the artist's worldview, attitude to life, and artistic thinking. In some plays, G. Brim creates complex constructions that encourage philosophical thinking, and in some, he realistically reflects architectural elements. In other In the productions, the stage is maximally conventionalized, creating a strong artistic effect through the simplest visual means. It is in the performances "Starry Nights"

and “Zebunniso” that such expressive means are widely used, and these performances have become a vivid example of minimalism and symbolic approach in the artist's artistic thinking. It is appropriate to emphasize the following words about the appropriateness of the direction and scenery in both works. In the performance “Starry Nights”, the plaque with Babur's ghazals written in Arabic script stands out as a rag, the surroundings of which have been burned and blackened by the fire of years. The director and the stage artist begin the performance with such an expressive symbolic sign. The original use of stage means in the previous performance - “Starry Nights” is also noteworthy. In particular, the wheels and flanges, which were constantly spinning, ready to embark on a distant and difficult, but honorable journey with Babur, are no longer necessary. It lies around the stage and at the end of the stage like a curtain. Time seems to stand still, and even if it moves, it only serves the benefit of fraud, extortion, deceit, and deceit. Proud, active, "The erksevar Zebunniso fell into this very insidious trap." The fact that the stage world created by G. Brim followed the national traditions of architecture, while at the same time reflecting the main contradiction of the performances, has been repeatedly recognized by a number of art critics and journalists. As noted, G. Brim was one of the few artists who fully mastered the methods of dynamic (constantly growing) transformation (change).

This was especially evident in the play "Maysara's Work" (1986), later staged at the "Young Guard" (later named after A. Khidoyatov) Theater in collaboration with B. Yuldoshev, where truly national elements of the square theater - clowns, masks, folk games, dances and songs - are connected with the famous plot that takes place in the favorite comedy of the Uzbek audience. Following the creative motto of one of the theater artists Pietro Gonzago "... decorative scenery is music for the eyes", B. Yuldoshev, working on each play with G. Brim, seemed to emphasize that there should be a duet of musical sounds and music of colors. In 1991, at the Abror Khidoyatov Theater (now the Uzbek State Drama Theater), the play "Iskandar" was presented to the audience in the interpretation of two great creative personalities. The stage design of the performance harmoniously combined European symphony and Uzbek national classical maqoms, Byzantine mosaic and Eastern architecture. Not only the artistic design and scenography of the performance embodied the harmony of Eastern and Western cultures, that is, universality. "The stage area is shrouded in poetry, resembles a unique voluminous, majestic epic. Everything rhymes here. Scenery with costumes, rhythmic moving scenery with plastic compositions, music with text and even music with music," the press noted. The symbolic and figurative visual solutions created by artist G. Brim for the performance staged by B. Yuldoshev fully

corresponded to the spirit of the epic genre, turning the events in it into a unique and attractive spectacle of theatrical art. Through visual images, symbols and artistic signs on the stage, the artist was able to interpret the experiences of Navoi's epic in accordance with modern theatrical interpretation, making them more vivid and impressive for the viewer. In this stage solution, G. Brim manages to express Navoi's universal ideas and philosophy, which he wants to convey to future generations, in an extremely simple, understandable, and at the same time aesthetically high level. The decoration acts not only as an artistic decoration that pleases the eye, but also resonates in harmony with the poet's great call for representatives of different nationalities and sects to harmony, kindness and spiritual purity. As a result, the scenography becomes a powerful artistic layer that deepens the content of the performance, enriches it spiritually and morally. The play "A Donkey's Controversy" (1994), created in collaboration with B. Yuldoshev and G. Brim based on the work of F. Durrenmatt, was also very interesting with its scenography and artistic solution. The events of the play were "adapted and wonderfully assembled" by the director in a unique way, and as some parodists noted, it depicts human errors in the style of "a surreal fantasy stream of human stupidity, stubbornness and ambition". The story of boundless stupidity and hypocrisy is very expressive, ironic and at the same time deeply painful. The once highly civilized city is now a ruin, the remains of a certain cultural environment, families destroyed like their homes, citizens of the state whose destinies have burned to ashes, the disabled; a talking head and many other phantasmagorical characters, a sad play and stage atmosphere were created about those who were once sane, but turned themselves, their homes, their destinies and history into ashes. In this way, B. Yuldashev and G. Brim demonstrated an unexpected and unique expression of global problems on stage. The performances created by them, "small" in form, but grandiose in content, reflected the world very clearly and powerfully in essence.

"The three pillars of modern decorative art, consisting of light, space and color, were mastered by the artist under the influence of all complex means of expression. Brim's scenic language is always unique, bright, harmonious, full of images and metaphors, derived from the essence of the dramatic work and the director's intention," writes Doctor of Art History, Professor M. Tolakhodjayeva. In the tandem of B. Yoldoshev - G. Brim, the directorial concept and scenographic space have become a complex artistic mechanism that complements each other and creates meaning together. Their collaboration has made a great contribution to the formation of aesthetic synthesis, deep philosophy, symbolic stage speech and modern theatrical language in Uzbek theatrical art. B. Yoldoshev's philosophical-

symbolic direction, combined with G. Brim's plastic-spatial imagination, created a new stage code. The artistic foundations of creative cooperation are as follows. 1. Ideological and aesthetic closeness. B. Yuldoshev's direction puts philosophical ideas, spiritual perfection and dramatic conflict at the center of the stage work. G. Brim, on the other hand, built the artistic space on the basis of symbolic construction, minimalism and metaphorical decoration. Together they created a synthesis of modern theatrical aesthetics consisting of Eastern educational content, Western stage convention and metaphysical space. This aesthetic closeness ensured the stable preservation of a common stage language in each production. 2. The chosen space is the visual center of the idea. G. Brim formed B. Yuldoshev's artistic, spiritual or philosophical ideas through constructive space on the stage. In the artist, the decoration was never interpreted as just a visual ornament - but as a source of ideas. For example: high vertical constructions - a metaphor for human thinking and will, light moving elements - a symbol of contradiction and changeability, dark shadows - a sign of tragic dramatism. 3. The dynamic balance between conditionality and real space. Conditionality in the scenography of G. Brim reinforced the epic and philosophical direction in the direction of B. Yuldoshev. The scenery in these performances does not completely repeat reality, but serves as an aesthetic structure reflecting the inner essence of the event, the mental state of the hero, the culmination point of the drama. 4. The relationship of stage behavior and stage space. The spatial structure of the mise-en-scene. B. Yuldoshev's direction always requires a large-scale mise-en-scene, plastic movement and dynamic composition. G. Brim, in accordance with this requirement, would strengthen the director's idea through open space, a comparative harmony of vertical and horizontal planes, and transforming stage elements, which would allow for the actor's movement. 5. Symbolic plasticity In the collaboration of two creators, each object and movement on the stage acquires a meaningful symbolic character. For example, a raised field is a stage of personal maturity, a lowered light is a spiritual test, oscillating construction - the imbalance of human life. 6. Integration of Eastern and Western aesthetics in the direction of B. Yuldoshev Eastern enlightenment and Western dramatism take on a balanced visual form in the scenography of G. Brim. Eastern traditions, giving meaning through rituals, symbolic compositions, behavior, merge with minimalist constructions formed under the influence of Western traditions, psychological light solutions, metaphysical stage space, creating a spatial dramaturgy of humanity, enlightenment and conflict. The collaboration of B. Yuldoshev and G. Brim gave rise to such important trends in the Uzbek theater as: • the formation of modern scenography, • a new stage in the harmony of directorial thought and stage space, •

the development of symbolic theater, • the scientific and practical synthesis of folk and modernist aesthetics. The stage language they created determined the creative stage of the modern national theater and offered a new standard for the next generation of directors and artists. In conclusion, it should be said that in the example of the tandem of two creative people, a new approach to the art of scenography was created through a new way of thinking, a new approach to the area of the artistic and conditional expressive language of the theater. The “language” of decoration was directed to directly appeal to the associative thinking of the viewer, to give an active impetus to artistic perception, to thinking.

#### **List of references List of references**

1. Kalinina O. Happy Tandem. "People's Word", 1995. November.
2. Kalonova Z. "Pravda Vostoka"
3. "Youth of Uzbekistan", 1991 July, August 20
4. "People's Word", 1992 July, November 20.
5. Sosnovskaya A. // "Soviet Theater and Cinema Artists", 1984, No. 6)
6. Sosnovskaya G. // "Theatrical Uzbekistan", 1985, No. 11).
7. Tulyakhodzhaeva M. Three Whales of Georgy Brim. // "Pravda Vostoka", 1995, March 15).
8. About author: Sadullaeva Kamola Olimovna - teacher of the Uzbek State Academy of choreography, independent researcher of UzDSMI

### **GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL DIALEKTIKASINING MADANIY TIZIMGA MOSLASHUVI**

*Narzullayeva Husnora Dustqul qizi*  
*Samarqand davlat chet tillari instituti, magistrant*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari ta'sirida milliy til dialektikasining madaniy tizim bilan o'zaro aloqasi, moslashuv mexanizmlari va transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tilning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi o'rni, global axborot makonida milliy identifikatsiyani saqlash masalalari dialektik yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, milliy tilning madaniy barqarorlik va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, milliy til, dialektika, madaniy tizim, identifikatsiya, madaniy moslashuv.

Globalashuv zamonaviy dunyoning eng muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlaridan biri bo'lib, u barcha sohalarga, xususan, til va madaniyat tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivoji, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi va transmilliy kommunikatsiya shakllarining kengayishi

natijasida milliy tillar yangi sharoitga moslashish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bu jarayonda milliy til dialektikasi – ya'ni an'anaviy va zamonaviy unsurlar o'rtasidagi qarama-qarshilik va uyg'unlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv til makonini kengaytirib, ayrim tillarning xalqaro kommunikatsiya vositasiga aylanishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu holat kichik va milliy tillar uchun ma'lum xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda. Milliy til globallashuv sharoitida nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy xotira va tarixiy tajribani uzatuvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Til orqali millatning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy kodlari avloddan-avlodga o'tadi.

Dialektik yondashuv tilni doimiy harakat va rivojlanish jarayonida bo'lgan tizim sifatida talqin etadi. Bu jarayonda til bir vaqtning o'zida tarixiy meros va zamonaviy talablarni uyg'unlashtiradi. Milliy til dialektikasi an'ana va yangilik, mahalliylik va universallik o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. An'anaviy jihatlar, masalan, xalq og'zaki ijodi, she'riyat, urf-odat va xalq hikoyalari, milliy tilning boyligini va madaniy identifikatsiyasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, yangiliklar va modernizatsiya jarayonlari tilga yangi so'zlar, terminlar, texnologik va ilmiy lug'atlar kiritadi, tilning funktsional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Globallashuv sharoitida milliy tilning dialektik tabiati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Bir tomondan, til xalqaro terminologiyani qabul qilishga majbur bo'ladi. Masalan, IT, ilm-fan va biznes sohalarida ko'plab inglizcha so'zlar va atamalar milliy tilga kirib keladi. Bu jarayon tilning zamonaviy va global talablar bilan moslashishini ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan, milliy til o'zining ichki me'yorlarini saqlab qolishga intiladi: grammatik qoidalar, fonetika, leksik tarkib va madaniy kontekst saqlanadi. Agar ushbu balans buzilsa, til soddalashadi yoki ma'naviy boyligi yo'qoladi, natijada milliy identifikatsiya zaiflashadi.

Madaniy tizim til orqali namoyon bo'ladigan ramzlar, urf-odatlar, an'analar va ijtimoiy me'yorlar majmuasidir. Bu tizim milliy identifikatsiyani shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi va til orqali o'zining tarixiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Shu sababli, milliy tilning madaniy tizimga moslashuvi faqat lingvistik o'zgarishlardan iborat bo'lib qolmay, balki keng ijtimoiy, madaniy va texnologik kontekstni ham o'z ichiga oladi.

Milliy tilning madaniy tizimga moslashuvi avvalo ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimi ona tilining asosiy qo'llanilish maydoni bo'lib, u orqali tilning grammatik, leksik va fonetik me'yorlari avloddan-avlodga yetkaziladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va elektron resurslar orqali milliy tilning yangi terminologiyasi va ilmiy-texnik so'z boyligi

rivojlantiriladi. Masalan, o'quv jarayonida raqamli darsliklar va interaktiv platformalar milliy tilni yangi formatlarda qo'llash imkonini beradi.

Milliy til identifikatsiyaning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonida madaniyatlararo integratsiya kuchaygan sari milliy o'zlikni saqlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Til orqali millat o'zining tarixiy xotirasini, madaniy merosini va ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlaydi. Shu sababli, milliy til siyosati va madaniy strategiyalar globallashuv sharoitida muvozanatli yondashuvni talab etadi.

Milliy tilni globallashuv sharoitida rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhimdir:

- ta'lim tizimida ona tilining ustuvorligini ta'minlash;
- zamonaviy ilm-fan va texnologiya terminlarini milliy tilga moslashtirish;
- raqamli makonda milliy til kontentini kengaytirish;
- madaniyatlararo muloqotda milliy til nufuzini oshirish.

Xulosa qilganda, yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarga kelish mumkin.

Globallashuv sharoitida milliy til dialektikasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u madaniy tizimning barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy tilning madaniy moslashuvi global va lokal omillar o'rtasidagi muvozanatni talab etadi. Dialektik yondashuv asosida olib borilgan til siyosati va madaniy strategiyalar milliy identifikatsiyani saqlash bilan birga, zamonaviy taraqqiyotga moslashuvni ham ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hall, S. Cultural Identity and Globalization. London: Sage Publications, 2018.
2. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
3. Fishman, J. Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective. Clevedon: Multilingual Matters, 2017.
4. Bauman, Z. Globalization: The Human Consequences. New York: Columbia University Press, 2016.
5. Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2020.
7. Xolmonova, Z. Til va madaniyat munosabatlari. Toshkent: Fan, 2021.
8. Safarov, R. Globallashuv va milliy madaniyat. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

**ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA BADIY TAFAKKUR VA TIL  
MUNOSABATI HAMDA BADIY MATNDA STILISTIK  
VOSITALARNING PRAGMATIK VAZIFASI**

*Fayzullayev Dilshod Ziyodullo o'g'li*  
SHAHRISABZ D.P.I. FILOLOGIYA FAKULTETI  
O'.T.A YO'NALISHI 1.22-GURUH TALABASI

*Usmonova Yulduz O'lmas qizi*  
SHAHRISABZ D.P.I. FILOLOGIYA FAKULTETI  
O'.T.A YO'NALISHI 1.22-GURUH TALABASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida badiiy tafakkur va til o'rtasidagi murakkab dialektik munosabat, shuningdek badiiy matnda qo'llaniladigan stilistik vositalarning pragmatik mohiyati ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqot davomida metafora, metonimiya, inversiya, ellipsis kabi stilistik kategoriyalarning kommunikativ-pragmatik funksiyasi aniqlanib, ularning o'quvchi ongiga ta'sir mexanizmi ko'rsatib beriladi. Maqola zamonaviy o'zbek nasri va she'riyatidan olingan autentik misollar asosida argumentlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy tafakkur, stilistika, pragmatika, badiiy matn, til munosabati, uslubiy vosita, zamonaviy o'zbek adabiyoti.

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the complex dialectical relationship between artistic thought and language in contemporary Uzbek literature, as well as the pragmatic essence of stylistic devices used in literary texts. During the research, the communicative-pragmatic functions of stylistic categories such as metaphor, metonymy, inversion, and ellipsis are examined, and their mechanisms of influence on the reader's consciousness are demonstrated. The article is substantiated with authentic examples drawn from contemporary Uzbek prose and poetry.

**Keywords:** artistic thinking, stylistics, pragmatics, literary text, language relation, stylistic device, contemporary Uzbek literature.

**Özet:** Bu makalede çağdaş Özbek edebiyatında edebî düşünce ile dil arasındaki karmaşık diyalektik ilişki ve edebî metinlerde kullanılan stilistik araçların pragmatik mahiyeti bilimsel açıdan analiz edilmektedir. Araştırma sürecinde metafor, metonimi, inversiyon ve elipsis gibi stilistik kategorilerin iletişimsel-pragmatik işlevleri tespit edilerek, bunların okuyucunun bilincine etkisi açıklanmaktadır. Makale, çağdaş Özbek nesir ve şiirinden alınan otantik örnekler temelinde temellendirilmektedir.

**Anahtar Kelimeler:** edebî düşünce, stilistik, pragmatik, edebî metin, dil ilişkisi, üslup araçları, çağdaş Özbek edebiyatı.

Kirish. Adabiyot va til bir-biridan ajralmas ikki hodisa sifatida insoniyat ma'naviy tarixida hamisha markaziy o'rin egallagan. Til badiiy ijodning asosiy quroli bo'lsa, badiiy tafakkur esa o'sha qurolni boshqaruvchi ijodiy kuchdir. Zamonaviy o'zbek adabiyoti — mustaqillik davri adabiyoti — bu aloqani yanada teranlashtirdi: milliy istiqlol ruhidagi ozodlik tuyg'usi, inson mavjudligi, zamon va makon falsafasi kabi ulkan mavzular o'ziga xos lingvistik ifodasini topishga intildi. Badiiy matnni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki murakkab semiotik tizim sifatida talqin etish zarurati olimlarni yangi metodologik asoslar izlashga undamoqda.<sup>1</sup> Ushbu maqolada ana shunday zaruratdan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari asosida badiiy tafakkur, til va stilistikaning pragmatik o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Xurshid Davronning she'riyatidagi so'z tanlovi arxaik va neologizmlarning uyg'unlashuvi — bu dialektikaning yaqqol namunasidir. V. Gyumboldt, A. A. Potebnya va keyinchalik M. Baxtin tomonidan ishlab chiqilgan «til — tafakkurning uyidir» konsepsiyasi zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi kontekstida yangicha talqin qilish imkoniyatini beradi. Chunki o'zbek nasri va she'riyatining so'nggi o'n yilligida tilning badiiy tafakkurni nafaqat ifodalash, balki uni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi kuzatilmoqda. Bu ayniqsa Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romanida yaqqol namoyon bo'ladi: qahramon ichki nutqining parchalanishi, monolog va dialogning o'zaro kirishishi — tafakkur tuzilishining til vositalari orqali modellashtirilishidir. Shunday qilib, zamonaviy o'zbek adabiyotida til va badiiy tafakkur o'rtasidagi munosabat bir tomonlama aks ettirishdan ko'ra, o'zaro generativ jarayon sifatida namoyon bo'ladi: tafakkur tilni yangilaydi, til esa tafakkurni kengaytiradi.

Stilistik vositalarning pragmatik vazifasi. Pragmatika — til birliklari qo'llanish kontekstida hosil qiladigan ma'nolar va kommunikativ effektlarni o'rganuvchi fan sohasi. Badiiy matnda stilistik vositalar nafaqat estetik bezak sifatida, balki o'quvchi ongini yo'naltirishning, hissiyotlarni boshqarishning va axloqiy-falsafiy muloqotni tashkil etishning asosiy mexanizmlari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Aynan shu nuqtada stilistika va pragmatika kesishadi. Metafora — badiiy matnning eng universal stilistik vositalaridan biri bo'lib, zamonaviy o'zbek nasrida alohida semantik yukka ega. Masalan, «Ko'ngil — sahroi sargashta» tipidagi metaforalar faqat obrazlilik hosil qilmaydi; u o'quvchini ma'lum axloqiy-emotsional pozitsiyaga «majbur» qiladi, uning dunyoqarash tizimiga murojaat qiladi. Inversiya — so'z tartibini odatiy grammatik me'yordan og'ish orqali matniy vurgu yaratuvchi stilistik usul — zamonaviy o'zbek she'riyatida keng qo'llaniladi. She'rdagi inversionlashgan qurilmalar ritm bilan birgalikda o'quvchining diqqatini

<sup>1</sup>Qodirov N. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. — Toshkent: Fan, 2018. — B. 47.

keskin to'xtab, ma'noni qayta tahlil qilishga undaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyotidagi stilistik izlanishlar nafaqat estetik yangilanishni, balki kommunikativ-pragmatik yangi modelning shakllanayotganligini ko'rsatmoqda.<sup>2</sup> Muallif o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ma'no yaratuvchiga aylantirish uchun stilistik vositalarni maqsadli ravishda tanlaydi va tashkillashtiradi.

Badiiy matn va pragmatik makon. Badiiy matn — bu nutqiy aktning maxsus shakli bo'lib, unda ilokutsionar kuch (ta'sir qilish niyati), lokusiya (bayon qilish) va perlokutsion effekt (o'quvchiga ta'sir) bir vaqtda amalga oshiriladi. J. Ostin va J. Searl tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi badiiy matnning tahlil qilishda muhim metodologik asos beradi: har bir stilistik tanlov — bu muallif tomonidan ongli ravishda amalga oshirilgan pragmatik aktdir. Zamonaviy o'zbek nasrida intertekstuallik — boshqa matnlarga yashirin yoki ochiq murojaat — pragmatik makonning kengayishi sifatida namoyon bo'ladi. Adib nafaqat o'z matnini yaratadi, balki o'quvchini adabiy xotira makoni orqali sayohatga chiqaradi. Bu esa o'quvchidan ma'lum madaniy kompetentlikni talab qiladi; shu bois intertekstuallashtirilgan stilistik vosita o'quvchi toifasini belgilaydi va matnning pragmatik yo'nalishini aniqlashtiradi.

Ironiya va sarkazm — zamonaviy o'zbek nasrida ijtimoiy tanqidni ifodalovchi asosiy stilistik vositalardan biriga aylangan. Bu vositalarning pragmatik quvvati shundaki, muallif to'g'ridan-to'g'ri aytmagan holda o'quvchiga fikrni yetkazadi; bu esa o'quvchining o'zi xulosa chiqarishiga olib keladi. Xuddi shu jarayon kognitiv lingvistikada relevans nazariyasi (D. Sperber, D. Wilson) nuqtai nazaridan tavsiflansa, muallif «minimal kommunikativ kuch» bilan «maksimal pragmatik effekt» yaratishga intilishini ko'rsatadi. Demak, badiiy matnning pragmatik makoni — bu muallif niyati, til vositalari va o'quvchi talqinining kesishgan nuqtasidir. Har bir badiiy birlik matn ichida o'zaro aloqaga kirishib, umumiy pragmatik ma'noni shakllantiradi. Shu jihatdan qaralganda, zamonaviy o'zbek nasrida til va tafakkur uyg'unligi o'quvchi ongida ko'p qatlamli interpretatsiya jarayonini yuzaga keltiradi. Natijada badiiy matn nafaqat estetik, balki kuchli kommunikativ va kognitiv ta'sir vositasiga aylanadi.

Xulosa: Amalga oshirilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, zamonaviy o'zbek adabiyotida badiiy tafakkur va til o'rtasidagi munosabat bir tomonlama aks ettirishdan ko'ra o'zaro shartlovchi, dialektik aloqa xarakteriga ega bo'lib, bu aloqa har bir yozuvchining individual uslubida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, badiiy matnda stilistik vositalar — metafora, inversiya, ellipsis, ironiya, intertekstuallik — faqat estetik funktsiya emas, balki qator

<sup>2</sup>Mirzayev A. O'zbek adabiyotida zamonaviy uslubiy izlanishlar. — T: A.nashr, 2021. — B. 112–115.

pragmatik funksiyalarni — diqqatni boshqarish, hissiyot uyg'otish, o'quvchini faollashtirish, ijtimoiy muloqotni tashkil etish — bajarishi aniqlandi. Stilistik vositalar esa ushbu tizimda pragmatik vazifani bajarib, matnning ta'sir kuchini oshiradi. Natijada badiiy asar nafaqat estetik zavq beruvchi, balki o'quvchini fikrlashga undovchi murakkab kommunikativ tizimga aylanadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda zamonaviy o'zbek adabiyotining korpus-lingvistik tahlili, stilistik-pragmatik parametrlarning miqdoriy jihatdan o'rganilishi istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin. Bu esa o'zbek badiiy tilining zamonaviy lingvistika fanidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qodirov N. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. — Toshkent: Fan, 2018. — 210 b.
2. Mirzayev A. O'zbek adabiyotida zamonaviy uslubiy izlanishlar. — T: Fan, 2021. — 256 b.
3. Baxtin M. M. Estetika slovesnogo tvorchestva. — Moskva: Iskusstvo, 1979. — 424 s.
4. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. — Oxford: Blackwell, 1986. — 328 p.
5. Uspensky B. A. Poetika kompozitsii. — Sankt-Peterburg: Azbuka, 2000. — 352 s.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2009. — 184 b.
7. Nazarov B. Zamonaviy o'zbek she'riyatining uslubiy xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №3. — B. 22–29.

**TA'LIMDA KIBERPEDAGOGIKA KONSEPSIYASINING NAZARIY  
ASOSLARI***Choriyeva Shahlo Baxtiyorovna**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi,**Denov tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi Informatika fani o'qituvchisi**E-mail: choriyevashahlo66@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi ta'lim tizimida kiberpedagogika konsepsiyasining nazariy asoslari yoritilgan. Unda kiberpedagogikaning mohiyati, mazmuni hamda uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, konstruktivizm, konnektivizm va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida kiberpedagogikaning ilmiy-metodik poydevori ochib berilgan. Raqamli texnologiyalar, virtual ta'lim muhiti va interfaol platformalarning o'quv jarayonidagi ahamiyati asoslab berilib, ularning o'quvchilarning mustaqil fikrlash, raqamli savodxonlik va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kiberpedagogika, raqamli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, konstruktivizm, konnektivizm, virtual ta'lim muhiti, interfaol platformalar, raqamli savodxonlik, masofaviy ta'lim, innovatsion pedagogika.

**Kirish.** Bugungi kunda global axborotlashuv jarayonlari ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uni tubdan modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet resurslari, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim platformalarining rivojlanishi natijasida an'anaviy pedagogik yondashuvlar o'zgarib, yangi ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqda. Shunday zamonaviy yo'nalishlardan biri sifatida kiberpedagogika konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kiberpedagogika ta'lim jarayonini raqamli va virtual muhitda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya ta'limning ochiqligi, moslashuvchanligi va interfaolligini ta'minlash orqali o'quv jarayonini yanada samarali va zamonaviy shaklga keltiradi.

Shuningdek, kiberpedagogika konstruktivizm, konnektivizm va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar kabi ilmiy nazariyalarga asoslanib, o'quvchining faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida bilimlarni faqat o'zlashtirish emas, balki ularni mustaqil yaratish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Asosiy qism. Kiberpedagogika – bu pedagogika va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u ta‘lim jarayonini kiber makonda tashkil etish qonuniyatlarini o‘rganadi. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari bir qator ilmiy yondashuvlarga tayanadi:

✚ Konstruktivistik yondashuv. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holda emas, balki mustaqil ravishda shakllantiradi. Raqamli platformalar (masalan, LMS tizimlari, interaktiv dasturlar) o‘quvchiga mustaqil izlanish va tajriba o‘tkazish imkonini beradi.

✚ Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Kiberpedagogika o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Onlayn muhitda loyiha ishlari, muammoli vazifalar va hamkorlikdagi faoliyat orqali o‘rganish samaradorligi oshadi.

✚ Konnektivizm nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilim tarmoqlarda mavjud bo‘lib, uni egallash axborot manbalari bilan to‘g‘ri ishlashga bog‘liq. Internet resurslari, sun‘iy intellekt vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta‘lim jarayonining muhim komponentiga aylanadi.

Raqamli pedagogika tamoyillari. Kiberpedagogika quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ✓ interfaollik va multimediyaviylik;
- ✓ individuallashtirish va moslashuvchanlik;
- ✓ ochiqlik va uzluksizlik;
- ✓ masofaviylik va mobil ta‘lim imkoniyatlari.

✚ Kiber makon va ta‘lim muhiti. Virtual ta‘lim muhiti (Moodle, Google Classroom, Zoom va boshqalar) o‘quv jarayonini geografik chegaralarsiz tashkil etish imkonini beradi. Bu esa ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va inkluzivlikni ta‘minlaydi.

Kiberpedagogikaning ta‘limdagi ahamiyati. Kiberpedagogika konsepsiyasi quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

- a) ta‘limning sifat va samaradorligini oshiradi;
- b) o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantiradi;
- c) mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- d) global ta‘lim resurslariga kirish imkonini yaratadi;
- e) innovatsion pedagogik metodlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kiberpedagogika ta‘lim jarayonida moslashuvchanlikni ta‘minlab, har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kiberpedagogika zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Uning nazariy asoslari konstruktivizm,

konnektivizm va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga tayanadi. Raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, innovatsion muhit yaratish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mumkin. Shu bois, kiberpedagogik yondashuvlarni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika / M. Ochilov, N. Xo'jayev – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Raqamli pedagogika asoslari / A. Abduqodirov – Toshkent, 2021.
3. Umumiy pedagogika / B. Ziyomammedov – Toshkent, 2017.
4. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age / George Siemens – 2005.
5. E-learning and the Science of Instruction / Ruth Colvin Clark, Richard E. Mayer – 2016.
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658>

### XORIJIY TIL DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN INTERFAOL METODLAR

*Jurayeva Sevara Bahodir qizi,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi,  
Denov tumani 83-maktab Ingliz tili o'qituvchisi  
Email: ibrohimazamatov39@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda xorijiy til darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida samarali metodlar tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar, xorijiy til ta'limi, kommunikativ kompetensiya, debat, aqliy hujum, klaster, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarini rivojlantirishni ham talab etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning axborotni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, muqobil nuqtai nazarlarni baholash hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko‘nikma xorijiy til darslarida ayniqsa muhim bo‘lib, u o‘quvchilarning tilni chuqurroq o‘zlashtirishiga, muloqot jarayonida faol ishtirok etishiga va o‘z fikrini asoslab bera olishiga xizmat qiladi.

An’anaviy o‘qitish usullarida o‘quvchilar ko‘proq passiv tinglovchi sifatida qatnashsa, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda ular faol subyektga aylanadi. Bu esa o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirib, ularni mustaqil izlanishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlardan foydalanish xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarni muammoli vaziyatlarga jalb etish, fikr almashish, bahs-munozaralarda qatnashish va jamoada ishlash orqali ularning kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat til bilimlarini egallaydi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni ham o‘rganadi.

Mazkur tezisning dolzarbligi shundan iboratki, unda xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi – interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali usullarini aniqlash va pedagogik amaliyotga joriy etishdan iborat.

Asosiy qism. Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tilni o‘qitish faqat grammatik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham talab etadi. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish jarayonidir. Xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etib, uning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Quyidagi interfaol metodlar samarali hisoblanadi:

✚ “Aqliy hujum” (Brainstorming) – o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi va muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga yordam beradi.

✚ “Debat” metodi – o‘quvchilarni dalillar asosida fikr bildirishga, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga o‘rgatadi.

✚ “Klaster” metodi – mavzu bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi.

✚ “Rol o‘ynash” (Role play) – real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

✚ “Muammoli ta’lim” – o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur metodlar orqali o‘quvchilar:

- ✓ mustaqil fikrlashga o‘rganadi;
- ✓ dalillar asosida xulosa chiqaradi;
- ✓ muloqot madaniyati rivojlanadi;
- ✓ tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar (Kahoot, Quizizz, Padlet)dan foydalanish interfaollikni yanada oshirib, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish va o‘z fikrini asoslab bera olish kabi ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish orqali ularning kognitiv faolligini oshiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi va o‘rganilayotgan tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, debat, muammoli ta’lim, rol o‘ynash va loyiha metodlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish (onlayn platformalar, interaktiv testlar) interfaol muhitni yanada boyitib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, interfaol metodlardan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy mahorati, darsni to‘g‘ri rejalashtira olishi va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishiga bevosita bog‘liq. Demak, pedagoglar tomonidan innovatsion yondashuvlarni chuqur o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarga ega shaxsni shakllantirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives.
2. Johnson D.W. Active Learning Methods.
3. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar.

4. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogika.
5. Harmer J. How to Teach English.
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658>

## TARBIYAVIY TADBIRLARNING TURLARI, SHAKLLARI VA ULARNING AXLOQIY TARBIYADAGI AHAMIYATI

*Xojiqulova Gulasal Abdumalikovna,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi,  
Denov tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi  
Telefon raqami: +998 97 843 68 86  
E-mail: gulasalhoji323@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi tarbiyaviy tadbirlarning turlari, shakllari hamda ularning o'quvchilar axloqiy tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tarbiyaviy tadbirlarning ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy, ekologik va intellektual yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, suhbat, bahs-munozara, uchrashuv, sahna ko'rinishlari va interfaol metodlar kabi shakllarning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, ijtimoiy faollik, mas'uliyat va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyaviy tadbirlar, axloqiy tarbiya, ma'naviy rivojlanish, o'quvchi shaxsi, pedagogik jarayon, interfaol metodlar, tarbiya shakllari, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlar, xulq-atvor, ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, tarbiyaviy tadbirlar o'quvchi shaxsining axloqiy, estetik, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yor va qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab muhitida tashkil etiladigan tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlar shaxs kamolotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Tarbiyaviy tadbirlar o'z mazmuni, maqsadi va yo'nalishiga ko'ra turli turlarga ajratiladi. Ular quyidagicha tasniflanadi:

1) Ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy tadbirlar. Bu turdagi tadbirlar o'quvchilarda odob-axloq me'yorlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini

kuchaytirish, milliy qadriyatlarga hurmatni rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, “Vatanim – faxrim”, “Odob – inson ziynati” kabi mavzulardagi tadbirlar.

2) Estetik tarbiyaviy tadbirlar. O‘quvchilarda go‘zallikni his qilish, san’atni anglash va qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunga badiiy kechalar, she’riyat tadbirlari, teatr sahnalashtirishlari kiradi.

3) Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy chiniqishni ta’minlash, jamoaviylik va iroda sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4) Ekologik tarbiyaviy tadbirlar. Tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi (hasharlar, tabiatni muhofaza qilish aksiyalari).

5) Intellektual va ma’rifiy tadbirlar. O‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan viktorinalar, “Zakovat” o‘yinlari, fan haftaliklari.

Tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning shakliga bog‘liq. Amaliyotda quyidagi shakllar keng qo‘llaniladi:

- ✚ suhbat va davra suhbatlari;
- ✚ bahs-munozaralar (debatlar);
- ✚ uchrashuvlar (ijodkorlar, mutaxassislar bilan);
- ✚ sahna ko‘rinishlari va rolli o‘yinlar;
- ✚ tanlovlar va musobaqalar;
- ✚ ekskursiyalar va sayohatlar;
- ✚ trening va interfaol mashg‘ulotlar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan interfaol tadbirlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa tarbiyaviy ta’sirning kuchayishiga olib keladi.

Axloqiy tarbiyadagi ahamiyati: tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning axloqiy kamolotini shakllantirishda quyidagi jihatlar bilan muhim ahamiyat kasb etadi:

- Axloqiy ongini rivojlantiradi. O‘quvchilar yaxshilik va yomonlikni farqlashni o‘rganadi.
- Ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi. Halollik, vijdonlilik, mas’uliyatlilik kabi sifatlar mustahkamlanadi.
- Ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi. Jamoada ishlash, muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat uyg‘otadi. Bu esa shaxsning barkamol bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.
- Shaxsiy pozitsiyani shakllantiradi. O‘quvchi mustaqil fikr bildiradi va qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarda emotsional-intellektual rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarni tushunish va hurmat qilishni o'rganadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy tadbirlar ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ularni samarali tashkil etish uchun pedagoglardan yuqori kasbiy mahorat, ijodkorlik va zamonaviy metodlardan foydalanish talab etiladi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy ishlar natijasida jamiyatda faol, mas'uliyatli va barkamol shaxslar shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika / M. Ochilov, N. Xo'jayev – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2018.
2. Umumiy pedagogika / B. Ziyomammedov – Toshkent, 2017.
3. Tarbiya nazariyasi / S. Nishonova – Toshkent: Fan, 2019.
4. Pedagogik mahorat / A. Abduqodirov – Toshkent, 2020.
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658>

### REFLEKTIV FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Bobonazarova Durdona Shuhratovna,  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi  
Telefon raqami: +998 91 573 97 03  
E-mail: durdonabobonazarova46@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda o'qituvchining reflektiv faoliyatini shakllantirishning mazmuni, uning pedagogik ahamiyati hamda samarali tashkil etish shart-sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, refleksiyaning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** refleksiya, reflektiv faoliyat, pedagogik jarayon, o'z-o'zini tahlil qilish, innovatsion metodlar, pedagogik kompetensiya.

Kirish. Hozirgi kungacha refleksiya tushunchasi falsafa va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan bo'lib, u shaxsning o'z ongiga, fikrlariga va faoliyatiga nazar tashlashi, ularni tahlil qilishi sifatida talqin etiladi. Pedagogikada esa refleksiya o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, dars sifatini yaxshilash va o'quvchilarning faolligini ta'minlashda reflektiv yondashuv muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, reflektiv faoliyat o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, balki ma'lum pedagogik shart-sharoitlar asosida rivojlantiriladi. Bu esa ta'lim jarayonida

maxsus metodlar, vositalar va yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Aynan reflektiv faoliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va asoslash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tahliliy qism. Reflektiv faoliyat pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishga yo'naltirilgan jarayonni ifodalaydi. Ilmiy manbalarda refleksiya shaxsning o'z ichki holati, fikrlari va faoliyat natijalarini anglashga qaratilgan muhim mexanizm sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan esa reflektiv faoliyat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Reflektiv faoliyatni shakllantirishda bir qator pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ta'lim jarayonida qulay psixologik muhitni yaratish zarur. Bunday muhit o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantiradi, erkin fikr almashish va ochiq muloqotni ta'minlaydi. Natijada pedagog o'z faoliyatini erkin tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchi muhim shart – interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Zamonaviy metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, o'qituvchining ham reflektiv yondashuvini rivojlantiradi. Masalan, “aqliy hujum”, “klaster”, “bbb (bilaman–bilmoqchiman–bildim)” texnologiyasi, “insert” kabi metodlar orqali dars jarayonida tahliliy fikrlash rivojlanadi va refleksiya jarayoni tabiiy ravishda yuzaga keladi.

Uchinchi shart – o'z-o'zini tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda o'qituvchi o'z darslarini rejalashtirish, o'tkazish va natijalarini tahlil qilish orqali o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Reflektiv kundalik yuritish, darsdan so'ng tahliliy yozuvlar qilish, o'z faoliyatini mezonlar asosida baholash kabi usullar bu borada samarali hisoblanadi.

To'rtinchi shart – hamkorlik muhitini yaratish va tajriba almashishni yo'lga qo'yishdir. O'qituvchilar o'rtasida metodik birlashmalar, seminarlar, treninglar va ochiq darslar tashkil etish orqali o'zaro tajriba almashish reflektiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik muhitida pedagoglar bir-birining faoliyatini kuzatadi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida reflektiv faoliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi asoslab berildi. Olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, reflektiv yondashuvni tizimli ravishda qo'llagan o'qituvchilarda kasbiy rivojlanish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Xususan, ular dars jarayonini

chuqurroq tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarga moslashish hamda samarali metodlarni tanlashda ancha puxta yondashuvni namoyon etadi.

Natijalarga ko'ra, reflektiv faoliyatni shakllantirishda qulay psixologik muhit yaratish eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Ochiq muloqot va o'zaro ishonchga asoslangan ta'lim muhitida o'qituvchi o'z faoliyatini erkin tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida pedagogning ichki motivatsiyasini oshirib, o'z ustida ishlashga undaydi.

Muhokama. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, reflektiv faoliyatni shakllantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo'lib, u faqatgina alohida metod yoki vositalar bilan cheklanib qolmaydi. Balki u pedagogik faoliyatning barcha bosqichlariga integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur. Shu bilan birga, ayrim hollarda o'qituvchilarda refleksiya ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, vaqt yetishmasligi yoki metodik qo'llab-quvvatlashning kamligi kabi muammolar ham kuzatiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari reflektiv faoliyatni shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni kompleks tarzda tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Bu esa o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi va natijadorligini ham oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, reflektiv faoliyatni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, refleksiya o'qituvchiga o'z pedagogik faoliyatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar reflektiv faoliyatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni kompleks tarzda tashkil etish muhimligini ko'rsatdi. Jumladan, qulay psixologik muhit yaratish, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'z-o'zini tahlil va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, hamkorlik asosida tajriba almashishni yo'lga qo'yish reflektiv faoliyatni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, reflektiv yondashuvni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshiradi, ijodkorlik va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Natijada o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'z faoliyatini doimiy takomillashtirib boruvchi, zamonaviy talablar asosida ishlovchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

Kelgusida reflektiv faoliyatni yanada rivojlantirish uchun pedagoglarni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, maxsus trening va seminarlar tashkil etish

hamda refleksiyanı ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foygalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining ta'lim sohasiga oid qarorlari. – Toshkent, 2019–2023.
4. Avliyakov N.X. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.
5. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2019.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2020.

## MUNDARIJA

<b>Kamilova Sh.G'</b> . Oltin o'rda davlatida boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi .....	3
<b>Sayfutdinov D.R.</b> Mustaqillik yillarida O'zbekistonda oila institutini mustahkamlashning davlat siyosati va ijtimoiy mexanizmlari.....	6
<b>Boqiyeva U.X.</b> Qoraxoniylar davlatidagi siyosiy tuzum va boshqaruv tizimi .....	11
<b>Raximov F.R.</b> 2000-yillar boshlarida Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning aholi turmush darajasiga ta'siri .....	15
<b>Xudayberdiyeva D.M.</b> O'rta Osiyoda sovet konstitutsiyaviy tuzumining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari (1917–1924 yy.).....	18
<b>Xudayberdiyeva D.M.</b> O'zbekiston hududida sovet davri konstitutsiyaviy tizimining shakllanishi va rivojlanishi (1917–1991 yillar) .....	22
<b>Turdibekov S.A.</b> Mustaqillik yillarida o'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi (Samarqand viloyati misolida).....	26
<b>Sadullayeva K.O.</b> The combination of visual and dramatic solutions in the theater: cooperation of the director and scenographer .....	30
<b>Narzullayeva H.D.</b> Globallashuv sharoitida milliy til dialektikasining madaniy tizimga moslashuvi .....	38
<b>Fayzullayev D.Z., Usmonova Y.O'</b> . Zamonaviy o'zbek adabiyotida badiiy tafakkur va til munosabati hamda badiiy matnda stilistik vositalarning pragmatik vazifasi .....	41
<b>Choriyeva Sh.B.</b> Ta'limda kiberpedagogika konsepsiyasining nazariy asoslari .....	45
<b>Jurayeva S.B.</b> Xorijiy til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar .....	47
<b>Xojiqulova G.A.</b> Tarbiyaviy tadbirlarning turlari, shakllari va ularning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati .....	50
<b>Bobonazarova D.Sh.</b> Reflektiv faoliyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	52